

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O`RTA MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI
NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**

Qo`lyozma huquqida

Jo`rayev Alisher To`lqinboyevich

**Turkiston matbuoti tarixi (XIX asrning oxiri XX asrning birinchi
choragi)**

5A220201 – Vatan tarixi

Magistr darajasini olish uchun taqdim etilgan

DISSERTATSIYASI

**Ilmiy raxbar: tarix fanlari doktori, professor
Rasulov Abdulla Nuritdinovich**

Namangan - 2011

ANOTATSIYA

Magistrant Jo'rayev Alisher To'liqinboyevich tomonidan tanlab olingan "Turkiston matbuoti tarixi (XIX asrning oxiri XX asrning birinchi choragi)" nomli magistrlik dissertatsiyasi dolzarb mavzuga bag'ishlangan. Shuning uchun, Turkiston matbuoti tarixini to'laqonli yoritish, XX asr boshlarida vujudga kelgan o'zbek tilidagi dastlabki mustaqil milliy nashrlar va ularni tashkil etilishida milliy ziyolilar – jadidlarning tutgan o'rni, ularning amaliy faoliyatlarini tadqiq etish va yoritish magistrant tomonidan asosiy maqsad qilib belgilangan.

MUNDARIJA

Kirish..... 3

I bob. Turkistonda yangi davr matbuotining shakllanishi

1.1. Turkistonda matbaachilikning vujudga kelish shart-sharoitlari..... 10

1.2. Turkiston o'lkasiga rus matbuotining kirib kelishi va mahalliy xalqlar hayotiga ta'siri.....21

II bob. Turkistonda milliy ruhdagi matbuotning vujudga kelishi

2.1. Jadidlar tomonidan chop etilgan gazeta va jurnallar..... 31

2.2. Mahalliy matbuotda Turkiston xalqlarining ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy ahvolidan yoritilishi..... 39

III bob. Turkistonda sovet matbuotining vujudga kelishi, an'ana va munosabatlar

3.1. Turkiston matbuoti rivojlanishida mahalliy ziyolilar va yevropaliklarning o'rni..... 48

3.2. Turkiston matbuoti muammolari va echimlari..... 58

Xulosa.....	67
--------------------	-----------

Foydalanilgan manba va adabiyotlar ro'yxati.....	69
---	-----------

Kirish

Vatanimiz milliy mustaqillikni qo'lga kiritganidan so'ng, tarixiy haqiqatni har qanday mafkuraviy tazyiq va ta'sirlardan xoli tarzda xolisona va haqqoniy, adolat va tarixiylik nuqtai nazaridan yoritish imkoniyati vujudga keldi. Prezidentimiz I.A. Karimovning "... Haqqoniy tarixni bilmasdan turib o'zlikni anglash mumkin emas"¹ degan fikri tarixchi olimlarimiz zimmasiga katta ma'suliyat yukladi. Biz bugungi kunda tarixning o'ziga xos burilish pallasida, ya'ni muhim ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning jonli guvohi bo'lish bilan birgalikda, Vatan taraqqiyoti va istiqboli uchun hissa qo'shishga imkon yaratilgan davrda yashamoqdamiz.

Mavzuning dolzarbligi. Ona yurtimiz O'zbekistonning mustaqillikka erishuvi milliy madaniyatimizning ajralmas bo'lagi bo'lgan matbuotimiz tarixining hali noma'lum sahifalarini tiklash uchun imkon yaratdi. O'zbekiston matbuoti taraqqiyotining 1917 yilgacha bo'lgan davri Turkistonda mustamlaka rus hukumati hukmronligi davrida, so'ng 1991 yilgacha bo'lgan davri sho'ro tuzumi sharoitida kechdi. Hozirga qadar tadqiqotchilar tomonidan matbuotimiz tarixini yorituvchi talaygina maqola, risola va kitoblar yaratilgan. Biroq, ularning aksariyati sovet hokimiyati sharoitidagi hukmron kommunistik mafkura talablari asosida yozilganligi sababli, ko'p hollarda matbuotimizning taraqqiyot yo'li haqida xolis tasavvur bera olmaydi. Turkiston matbuoti tarixining xususiyati shundaki, bu hududda matbuot Yevropa va Osiyodagi ko'p mamlakatlardagiga nisbatan ancha kech tashkil topdi va taraqqiy etdi. Bu yerda gazetachilik Turkistonni XIX asrning 60-yillarida qurol kuchi bilan bosib olgan rus mustamlakachi hukmdorlari rahnamoligida vujudga keldi va rivojlana boshladi. 1870 yilda Toshkentda tashkil

¹ Каримов И. А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. – Т.: Шарқ, 1999. – Б. 7.

topgan “Turkestanskije vedomosti” va “Turkiston viloyatining gazetasi” gazetalarini Oʻrta Osiyodagi davriy matbuotning toʻngʻich namunalari hisoblanib, ularning har ikkisi ham 1917 yilga qadar nashr qilingan¹.

Turkiston matbuoti tarixida bu gazetalar kabi uzoq muddat davomida uzluksiz chiqqan boshqa davriy nashr boʻlgan emas. Bu gazetalar mustamlakachi ruslarning Turkiston maʼmuriyati mablagʻi hisobidan nashr qilinib, shu maʼmuriyatning rus va oʻzbek tilidagi rasmiy matbuot nashri vazifasini oʻtagan va oʻlkada mustamlakachilik siyosatini oʻtkazish vositasi boʻlib xizmat qilgan.

Birinchi rus inqilobi (1905–1907) dan soʻng rus hukumati sarosimaga tushib qoldi va matbuot sohasida biroz yon berishga majbur boʻldi. Ilgʻor musulmon ziyolilari bu vaziyatdan foydalanib, davriy nashrlar chiqarish toʻgʻrisida ruxsatnoma olishga erishadilar. Shunday qilib, avval Toshkentda, keyinroq Samarqand, Qoʻqon va Buxoroda birin–ketin ijtimoiy–siyosiy va adabiy mazmundagi bir qator oʻzbek tilidagi davriy nashrlar paydo boʻldi. Ularning tashkilotchilari, muharrir va mualliflari XIX asr oxiri XX asr boshlarida Turkistonda maʼrifatchilik zahirida yuzaga kelgan jadidchilik harakatining mafkurachilari boʻlishdi. Jadidlar rus istilochilari va mahalliy mustabidlar tazyiqi ostida qolgan Turkiston oʻlkasini savodli, maʼrifatli, taraqqiyotga erishgan, obod yurtga aylantirish orzusi bilan yashadilar va matbuotni shu orzuga erishish yoʻlidagi qudratli vosita deb bildilar. Turkiston jadidlarining yetakchi namoyondalari Mahmudxoʻja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitratlar taraqqiyparvar yoʻnalishdagi oʻzbek matbuotini shakllantirishga juda katta hissa qoʻshdilar.

1917 yil fevralidagi rus inqilobidan soʻng Turkistonda oʻlka hayotini demokratik asosda yangilash talabi bilan chiqqan qator milliy, yangi davriy nashrlar paydo boʻldi. Milliy harakatni avj oldirishda, oʻzbek xalqining ijtimoiy–siyosiy faolligini milliy istiqlol uchun kurashga yoʻnaltirishda shu yili tashkil

¹ Абдуазизова Н.А. Туркестон матбуоти тарихи (1870 – 1917 йй.). – Т.: Академия, 2000. – Б. 45.

etilgan “Najot”, “Turk eli”, “Turon”, “Ulug’ Turkiston”, “Hurriyat”, “El bayrog’i” gazetalari va “Oyna”, “Yurt”, “Chayon” jurnallarining xizmatlari katta bo’ldi¹.

Mazkur nashrlar ham asosan Turkistondagi jadidchilik harakatining faol namoyondalari tashabbusi bilan yuzaga keldi va ularning ijodiy hamkorligida faoliyat ko’rsatdi. Shuni alohida qayd etish joizki, sovet tuzumi davrida jadidchilik harakatining o’zbek xalqi ijtimoiy–siyosiy va madaniy hayotidagi ahamiyati tarixiy haqiqatga zid ravishda buzib talqin qilindi. Shuning uchun bugungi kunda Turkiston matbuoti tarixini xolisona, tarixiy izchillik nuqtai nazaridan o’rganish juda ham muhim va biz tarixchilar oldida turgan dolzarb muommolardan biri hisoblanadi. Yurtimizning mustaqilligi tufayli biz endilikda tarixiy merosimizni haqqoniy o’rganishga va baholash imkoniyatiga ega bo’ldik. Mustaqil O’zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi 1993 yilda “Taraqqiy” gazetasining birinchi soni chiqqan 27 iyun sanasini o’zbek matbuotchilarining kasb bayrami sifatida nishonlash to’g’risida maxsus qaror qabul qildi. Bu milliy matbuotimizning xalqimiz ravnaqidagi beqiyos xizmatiga berilgan munosib bahodir.

Tadqiqotning davriy chegarasi. Tadqiqot uchun davriy chegara sifatida XIX asr oxiri va XX asr birinchi choragi belgilandi. Bu davr oralig’ida Turkistonda rus mustamlakachilari rahnamoligida ilk davriy nashrlarga asos solindi va keyinchalik bu hududda mahalliy matbuot taraqqiy eta boshladi. Birinchi va ikkinchi rus inqiloblari davrida o’lkada bir nechta milliy ruhdagi, mahalliy gazeta va jurnallar chop etildi. Albatta, ularning tashkilotchilari va mualliflari milliy ziyolilarimiz edi.

Mavzuning o’rganilish darajasi. Hozirga qadar Turkistonda vaqtli matbuotning paydo bo’lishi va rivojlanish tarixi haqida juda ko’plab asarlar, risola va maqolalar nashr qilingan. Ularni biz shartli ravishda uch guruhga bo’lib o’rganishimiz mumkin:

1. Rus mustamlakachiligi davrida,
2. Sovetlar hukmronligi yillarida,

¹ Абдуазизова Н.А. Миллий журналистика тарихи (Генезис ва эволюция). Биринчи жилд, – Т.: Шарк, 2008. – Б. 48.

3. Mustaqillik davrida e`lon qilingan asarlarni kiritishimiz mumkin.

Birinchi guruhga oid dastlabki maqola va asarlar rus mustamlakachiligi va sovet tuzumi yillarida nashr qilingan bo`lib, ularning ko`p qismi bizgacha etib kelmagan. Bu asarlarda ayrim matbuot organlari xususida fikr yuritilib, milliy matbuot to`ng`ich nashrlarining tafsilotlari ataylab buzib talqin qilinganligi va rasmiy organlarning faoliyatlari qo`llab-quvvatlanganligi yaqqol ko`zga tashlanadi.

O`zbek matbuotining ilk tadqiqotchisi Abdulhamid Sulaymon o`g`li Cho`lponning “Turkistonda matbuot” maqolasi yozilish sanasiga ko`ra, aynan shu mavzudagi dastlabki ish bo`lishi bilan birga, unda o`zbek vaqtli matbuoti tarixida nashr etilgan gazeta va jurnallarning o`z davrida millatimizga qay darajada xizmat qilganligi haqqoniy va xolisona yoritilgan¹. Bundan tashqari adabiyotshunos olim va jamoat arbobi, qatag`on yillari qurboni Ziyo Saidning 1927-yilda e`lon qilingan “O`zbek vaqtli matbuoti tarixiga materiallar” kitobi xam o`zbek vaqtli matbuoti tarixini o`rganishda muhim manba hisoblanadi. Shuningdek, tarixchi N.F. Simyonov yozgan asarda xam bolshevistik matbuot haqida bir qancha ma`lumotlar berib o`tilgan².

Ikkinchi guruhga sovetlar davrida yaratilgan adabiyotlarni kiritishimiz mumkin. Bu adabiyotlarda asosan Turkistondagi matbuot organlarining faoliyati yoritilgan bo`lib, ular asosan T. Ernazarov va A. Akbarovlarning maqola va asarlarida o`z ifodasini topgan³. XX asrning 70–yillarida T. Ernazarov va A. Akbarovlar tomonidan O`zbekiston matbuoti tarixining uch jildlik kitobi nashr etildi. Ayniqsa, T. Ernazarov Turkistonda vaqtli matbuotning vujudga kelishi va rivojlanishi, dastlabki manbalarni o`rganishdan tortib, gazeta hamda jurnallar, arxiv va statistik ma`lumotlardan foydalanib, O`zbekiston matbuoti sohasida ilk qadam qo`ygan, izlanuvchan olim, tadqiqotchi sifatida qadrlidir. U 1959 yilda

¹ Абдуазизова Н.А., Қаюмов А. Туркистон матбуоти тарихи тадқиқотчилар наздида // Жамият ва бошқарув. – Т., 2004. – №4.

² Симонов Н.Ф. Туркистонда большевистик матбуот (1902–1907 йй.). – Т.: ЎзФан нашриёти, 1941. – 56 б.

³ Эрнazarov Т., Акбаров А. Туркистонда вақтли матбуот. – Т.: Ўздавнашр, 1959. – 145 б.

nashr qilingan “Turkistonda vaqtlı matbuot” kitobida baʼzi dalillarni juda ehtiyotkorlik bilan boʻlsada, bayon etishga jurʼat eta olgan.

Uchinchi guruhga Oʻzbekiston mustaqillikni qoʻlga kiritgandan soʻng yaratilgan tadqiqotlarni kiritish mumkin. Mustaqillik yillari davomida K.Rahmonov¹, A.Rasulov², N.Abduazizova³, S.Shodmonova⁴, X.Uzoqov⁵, M.Jabborov⁶, B.Oʻrinova⁷, F.Achiq⁸, K.Rahmonov⁹, S.Halimova¹⁰, G.Nishonova¹¹ va boshqalar kitob, risola, dissertatsiya va maqolalar yozdilar. Turkiston matbuoti tarixiga yangi manbalar va yangicha yondashuv asosida Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat va jamiyat qurilishi akademiyasi qoshidagi Oʻzbekistonning yangi tarixi markazi olimlari tomonidan bir necha asarlar yaratildi. Masalan: T.Pidaev¹², N.A. Abduazizova¹³, Z.Esenboev¹⁴ kabi olimlarning asarlari shular jumlasidandir. Bu borada Turkiston matbuoti tarixini oʻrganishda olima N.A. Abduazizovaning xizmatlari katta. Uning matbuot tarixiga oid yuzdan ortiq maqolalari, oʻndan ortiq kitoblari chop etildi. Olima oʻz ilmiy tadqiqotlarida ilk oʻzbek noshirlik ishlarining paydo boʻlishi, genezisi va shakllanish bosqichlari,

¹ Раҳмонов К. Бухоро Республикасининг матбуот органи // Жамият ва бошқарув. – Т., 2004. – №2. – Б. 44–45.

² Расулов А. Туркистон маданий ҳаётида татарлар // Ижтимоий фикр, инсон ҳуқуқлари. – Т., 2004. – №1. – Б. 128 – 131.

³ Абдуазизова Н.А. Туркистон матбуоти тарихи тадқиқотчилар наздида // Жамият ва бошқарув. – Т., 2004. – №2., Маънавият кўзгуси // Жамият ва бошқарув. – Т., 2007. – №3. – Б. 41 – 13.

⁴ Шодмонова С. 1917 йилда Туркистонда ижтимоий–иқтисодий аҳволнинг даврий матбуотдаги мониторинги // Ижтимоий фикр, инсон ҳуқуқлари. – Т., 2006. – №1. – Б. 173 – 177.

⁵ Узоқов Х. Ўзбекистонда мустақиллик учун кураш тарихи 1900–1940 йиллар (журналистлар фаолияти мисолида): Тарих фан.ном. ...дисс. – Т., 1996. – 264 б.

⁶ Жабборов М.Р. Фарғона вилояти тарихининг “ Туркестанский сборник ” да ёритилиши (XIX аср охири–XX аср бошларида): Тарих фан.ном. ...дисс. – Т., 2000. – 159 б.

⁷ Ўринова Б.З. Ўзбекистон республикасида ижтимоий–иқтисодий ва маданий жараёнларни ёритишда вақтли матбуотнинг рўли (1991–2000 йиллар): Тарих фан.ном. ...дисс. – Т., 2002. – 194 б.

⁸ Фатма Ачиқ “ Ёш туркистон ” журнали тарихий–адабий манба сифатида: Филология фан.ном. ...дисс.– Т., 2002. – 165 б.

⁹ Раҳмонов К.Ж. “ Бухоро ахбороти ” ва “ Озод Бухоро ” газеталари – Бухоро Халқ Совет Республикаси тарихини ўрганиш манбаси : Тарих фан.ном. ...дисс. – Т., 2008. – 195 б.

¹⁰ Ҳалимова С.А. “ Садои Туркистон ” газетаси: йўналиши,тил, услуб ва жанр хусусиятлари : Филология фан.ном. ...дисс.– Т., 2008. – 158 б.

¹¹ Нишонов Г.У. Ўзбек публицистикасининг шаклланиши ҳамда ривожланишида “Ойна” журналининг ўрни ва аҳамияти : Филология фан.ном. ...дисс. – Т., 2008. – 150 б.

¹² Пидаяев Т. Матбуот миллат чироғи. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 1999. – 77 б.

¹³ Абдуазизова Н.А. Туркистон матбуоти тарихи (1870 – 1917 йй.). – Т.: Академия, 2000. – 238 б., Миллий журналистика тарихи (Генезис ва эволюция). Биринчи жилд, – Т.: Шарқ, 2008. – 506 б.

¹⁴ Есенбоев З. Матбуотга бахшида умр. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2001.– 158 б.

milliy matbuotning yuzaga kelishi, gazeta va jurnal nashr etishning sivilizatsiyaviy hodisa sifatidagi mohiyatini, sovet totalitarizmi sharoitida o'zbek matbuotining tajribalari va nuqsonlarini yaxlit holda ochib bergan.

Tadqiqotning maqsad va vazifalari. Tadqiqotning asosiy maqsadi Turkistonda milliy matbuotning vujudga kelishi, uning faoliyati haqida to'laqonliroq to'xtalib, matbuot tarixiga chuqurroq kirib borish, o'sha davr matbuotining millat taraqqiyoti tarixidagi munosib o'rni haqida muayyan tasavvur hosil qilish va bu masalani xolisona, tarixiylik nuqtai nazaridan ochib berishdan iborat. Mazkur maqsadni amalga oshirish o'z navbatida quyidagi vazifalarni belgilab beradi:

- Turkistonda matbaachilikning vujudga kelish tarixini o'rganish ;
- Turkistonda ruslar rahnamoligida ilk davriy nashrlarning paydo bo'lishi va ularning asosiy maqsad va vazifalarini ochib berish ;
- Turkiston davriy matbuotida jurnalchilik turining paydo bo'lishi va uning asosiy xususiyatlari haqida fikr yuritish ;
- XX asr boshlarida vujudga kelgan o'zbek tilidagi dastlabki mustaqil milliy nashrlar va ularni tashkil etilishida milliy ziyolilar – jadidlarning tutgan o'rni, ularning amaliy faoliyatlarini tadqiq etish ;
- 1917 yil fevral' inqilobidan keyin paydo bo'lgan, yangi demokratik ruhdagi gazeta va jurnallar faoliyatiga alohida to'xtalib, ularni chop etishdagi muammolar va kamchiliklar, bu muammo hamda kamchiliklarni bartaraf etish uchun qilingan amaliy chora–tadbirlar haqida xolisona to'xtalib o'tish ;
- bu davr matbuotida Turkiston aholisining ijtimoiy–iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy hayotining yoritilishi va uning tarixiy ahamiyatiga to'g'ri baho berish;
- Turkistonda sovet matbuotining vujudga kelishi va ularning faoliyati haqida batafsil to'xtalib o'tish ;
- tadqiqot natijalari bo'yicha zarur xulosalar berish.

Tadqiqotning uslubiy asosi. Ilmiy ishni yozish jarayonida mavzuga milliy va umuminsoniy qadriyatlar, milliy mafkura nuqtai nazaridan yondashildi. Shu bilan birgalikda Prezidentimiz I.A. Karimovning asarlari, nutq va maqolalarida ilgari surilgan g'oya va fikrlar uslubiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqotning manbalari. Tadqiqotning asosiy manbalari bo'lib, asosan mustaqillik yillarida yozilgan ilmiy maqolalar, asarlar, ilmiy tadqiqot ishlari hamda davriy matbuot materiallari, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Markaziy Davlat Arxivi manbalari xizmat qildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati. Tadqiqot ishining ilmiy yangiligi shundaki, mavzuni yoritishda tarixiy–qiyosiy usullardan keng foydalanilgan holda umumlashtirilib, xolisona tahlil etildi.

Tadqiqot ishidagi ilmiy xulosalardan o'quv–uslubiy qo'llanmalar yaratishda hamda ijtimoiy fakul'tet professor o'qituvchi va talabalari uchun maxsus kurs ma'ruzalari tayyorlashda va ilmiy–nazariy konferensiya, seminarlar tashkil etishda foydalanish mumkin.

Tadqiqotning tarkibi. Tadqiqotning tarkibi kirish, uch bob, xulosa, fodalaniilgan manba va adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

I BOB. TURKISTONDA YANGI DAVR MATBUOTINING SHAKLLANISHI

1.1. Turkistonda matbaachilikning vujudga kelish shart–sharoitlari

XIX asrning ikkinchi yarmida Turkistonda birinchi marta bosma kitob nashr etila boshlandi. Bu g'oyat muhim tarixiy voqea edi. Lekin O'rta Osiyoning markaziy shaharlarida bosmaxonalarning tashkil etilishini mustamlakachi ruslarning o'lkaga ko'rsatgan “marhamati” sifatida qabul qilish kerak emas.

Birinchidan, noshirlik jahon mamlakatlarida keng tarqalib bo'lgan edi.

Ikkinchidan, Turkiston o'lkasidagi ijtimoiy–siyosiy vaziyat rus hukumatidan bu erda mustamlakachilikka qarshi kurash avj olib ketishini bartaraf etish uchun muayyan jihatdan mahalliy ijtimoiy talablarga yon berishni talab qilar, bu borada bosmaxona kabi ijtimoiy dunyoqarashga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan, lekin mavjud mustamlakachilik siyosatiga halal bermaydigan siyosiy vositalardan foydalanishga majbur etardi.

Uchinchidan, bosmaxonalar Turkiston o'lkasidagi kitobga bo'lgan yuksak talabdan kelib chiqib, iqtisodiy foyda olishni ko'zlagan holda tashkil etilgan, bu o'rinda Turkistonga sehrli o'lka sifatida qaragan rus burjuaziyasining nafs ham yaxshigina rol o'ynagan edi. Bosmaxonalarniig tashkil etilishiga, ayniqsa, oxirgi sabab katta turtki berganini bu o'lkadagi noshirlik korxonalarining, asosan rus muhojirlari tomonidan tashkil etilib boshqarilgani ham tasdiqlaydi. Lekin bu siyosiy jarayonlar O'rta Osiyo xalqlarining savodini chiqarish, madaniy merosiga hissa qo'shish, ilm–ma'rifatni oshirish, qo'shni mamlakatlar xalqlari madaniyati bilan tanishtirish, jahonda yuz berayotgan o'zgarishlardan voqif qilish yo'lida olib borilgan harakatlar sifatida baholanishi haqiqiy siyosiy maqsadlarni niqoblash uchungina edi, xolos. To'g'ri, bundan o'lka xalqlariga hech qanday foyda bo'lmadi, deyish xato bo'ladi. Ammo siyosatga berilgan

ta`riflardan birida sadaqa berib quldek ishlatish aynan siyosatdagi ifloslik, ya`ni manfaat yo`lida vijdon va axloqni ifloslikka bo`ysundirish, deya ta`riflanadi.

Ruslarning Turkistonga ko`rsatgan yonbosishlari xuddi mana shu ta`rif mohiyatiga muvofiq kelar edi. Xullas, Turkistonda rus zodagonlarining manfaatlariga, qolaversa, o`sha mafkuraviy tuzum siyosatiga xizmat qiluvchi ma`naviy qurol sifatida bosmaxonalar tashkil etildi. Bu ayni vaqtda o`zbek madaniyatida kitoblarni bir vaqtning o`zida ko`plab nusxada nashr etilishining boshlanishini bildirar edi¹.

Turkistonda dastlab ish boshlagan bosmaxonalarda avvalo dunyoviy ilm-fan — geografiya, tarix, ma`danhunoslik, bog`dorchilik, dehqonchilik, tabobat, aniq fanlarga oid Yevropa mamlakatlari va Rossiya ilmiy hamda ommaviy jamoatchiligiga noma`lum bo`lgan asarlarga katta e`tibor qaratilgan. Rivojlangan xorijiy mamlakatlarda bu manbalarga talab va ehtiyoj kattaligi e`tiborga olingan. Samarqand universitetining kutubxonasida o`sha vaqtda nashr etilgan bunday kitoblarni ko`plab ko`rish mumkin. Jumladan, 1830 yilda Tohir ibn Qozi Abu Saidxo`ja Samarqandiy tomonidan fors tilida yozilgan Samarqandning bunyod etilish tarixi, shaharning “Samarqand” deb atalishi sababi, jug`rofiy holati va XIX asrning uchinchi choragiga qadar saqlanib qolgan osori–atiqalari, shuningdek, masjid va madrasalar, ko`shklar va mozorlar to`g`risida ma`lumotlar beruvchi “Samariya” asari ham mavjud. Nodir qo`lyozmalar bo`limida saqlanayotgan she`riy arifmetika jamlanmasi muallifi matematik, shoir, tilshunos, XIX asrda yashagan samarqandlik Boboyor Mirzaqulovdir. U geometriya darsligini o`zbek tiliga tarjima qilib, matematik grafika haqida tushuncha bergan, shuningdek, raqamlar turkumini 46 matematik belgiga ajratgan. Muallif qadimiy o`zbek qabilalarining 92 nomini birinchi bo`lib hisoblab chiqqan edi².

Turkistonda kitob bosish Rossiya imperiyasining o`z hukmronligini o`rnatishi bilan keng rivoj topdi. Toshkentda 1868 yilda birinchi bosmaxona harbiy

¹ Абдуазизова Н.А. Миллий журналистика тарихи (Генезис ва эволюция). Биринчи жилд, — Т.: Шарк, 2008. — Б. 68.

² Дадахонов Ф. Нодир қўлёзмалар хазинаси // Жамият. — Т., 2008. — №5. — Б. 8.

okrug shtabi huzurida tashkil qilindi. Bu bosmaxona dastlabki davrda yaxshi jihozlanmagan edi. Shu sababli bu yerda turli blankalar, ish qog'ozlari bosilgan. Mazkur bosmaxona gazeta nashr qilishga moslashmagani uchun 1869 yilda boshqa bosmaxona tashkil etilgan. Bu erda ishlash uchun Rossiyadan harf teruvchilar ham chaqirildi. Ushbu bosmaxona 1870 yildan arab harfi shriftiga ega bo'ladi.

XIX asr 70-yillaridan boshlab o'zbek tilida ham kitoblar nashr etila boshlanadi. 1872 yili nashr etilgan Shohimardon Ibrohimovning "Kalendar" kitobi ularning dastlabkisi edi. Kitob 500 nusxada, 17x13,5 santimetr o'lchamda, muqovasiz chiqarilgan¹.

XIX asrning ikkinchi yarmida Turkistonda xususiy bosmaxonalar paydo bo'la boshladi. 1877 yilda S.I. Laxtin tashkil etgan bosmaxona shularning dastlabkisidir. Mazkur bosmaxona litografiya jihozlariga ega bo'lib, mahalliy tilda kitoblar nashr qilgan. Shuni alohida qayd qilish kerakki, Turkistonda, garchi bosmaxona kech tashkil topgan bo'lsada, lekin litografiya yo'li bilan kitob nashr qilish ancha rivojlangan edi. Bunga sabab shuki, litografiya texnikasi uncha murakkab bo'lmay, bosmaxona uskunalariga nisbatan birmuncha arzon edi. O'rta Osiyoda birinchi litografiya Xiva shahrida 1874 yili vujudga keldi. Uning tashkilotchisi Otajon Abdalov edi. U eronlik ustozi Ibrohim Sulton rahbarligida Xivada toshbosma tashkil etishga muvaffaq bo'ldi. Shu paytdan boshlab u "Otajon bosmachi" (matbaachi) degan nom oldi. Biroq, bu ish uzoqqa cho'zilmadi. Xonlikdan moddiy yordam bo'lmagach, uning faoliyati to'xtab qoldi. Keyingi davrlarda tashkil etilgan litografiyalar mahalliy burjuaziya vakillaridan iborat ayrim shaxslar qo'lida edi. Temir sotuvchi Esonboy Husayinboev ham dastlabki o'zbek nashriyotchilaridan biridir. Uning litografiyasi Toshkentda 1883 yilda ishga tushirildi. Mazkur litografiya uchun asbob-uskunalar Rossiyadan 50 dan ortiq tuyada keltirilgan. Ma'rifat yo'lida jon kuydiruvchisi bo'lgan o'zbek nashriyotchisi kitoblarni o'z ona tilida chiqara

¹ Эрназаров Т., Акбаров А. Туркистонда вақтли матбуот. – Т.: Ўздавнашр, 1959. – Б. 10.

boshladi. 1888 yilning oxirida Toshkentda S.A. Portsev tomonidan yana bir bosmaxona ishga tushirildi. Umuman, 1868 yildan 1898 yilga qadar Turkistonda matbaa korxonalarining soni 15 ga etdi. Ulardan 6 tasi bosmaxona bo`lib, qolganlari litografiya yoki tipolitografiyaga ega bo`lgan bosmaxonalardir¹.

1893 yilda Otajon Abdalov yangidan toshbosma tashkil qilishga kirishdi. U o`z hisobidan 200 so`mga toshbosma sotib olib, nashriyotchilik faoliyatini davom ettirdi. O.Abdalov tarixiy asarlarni, Xorazm mumtoz adabiyoti namoyondalaridan Munis, Ogahiy kabi shoirlarning asarlarini toshbosmada ko`paytirib, omma orasiga keng tarqatadi.

Keyinchalik litografiyalar Toshkent, Buxoro, Samarqand, Andijon va boshqa shaharlarda paydo bo`la boshladi. Litografiya uchun asbob-uskunalar Rossiya, Hindiston, Eron, Misr va boshqa mamlakatlardan keltiriladi.

Ilk davrlarda matbaa korxonalari texnika jihatidan qoloq, mahsulot ishlab chiqarish jihatidan sifatsiz edi. Matbaa sanoati korxonalarida ishlayotgan xodimlarning tarkibi ham o`ziga xos edi, xususan mahalliy millat vakillari 72 kishi bo`lib, bulardan 16 kishigina malakali xodim edi. Bosmaxona va litografiyada ishlayotgan ishchilar orasida birgina ayol bor edi, xolos. Turkiston Rossiya imperiyasi tomonidan zabt etilgach, dastlabki davrdayoq kitob bosish uchun moddiy-texnika bazasi yaratildi. Rus burjuaziyasi tomonidan siyosiy maqsadlarda ko`rsatgan tashabbusi tez orada mahalliy ziyolilarning uni o`z qo`llariga olishlariga imkoniyat yaratdi. Mahalliy nashriyot vujudga kelishi Turkistonning o`sha davrdagi madaniy hayotida g`oyat katta voqea bo`ldi.

Kitob nashr qilish yangi ishlab chiqarish munosabatlarining mahsuli bo`lib, uning kashf qilinishi burjua jamiyati vujudga kelishiga muhim shart-sharoit yaratgan edi. Binobarin, Turkistonda kitob bosishning kech rivojlanishi uning iqtisodiy va texnik jihatdan nisbatan qoloqligi natijasidir. Ruslarning joylardagi ma`murlari kitob nashr qilishdan manfaatdormidi? Albatta, manfaatdor

¹ Эрназаров Т., Акбаров А. Туркистонда вақтли матбуот. – Т.: Ўздавнашр, 1959. – Б. 8.

edi. Ular kitob nashr qilishdan mustamlaka hokimiyatni mustahkamlash, Turkiston general–gubernatorligining obro`sinini oshirish, ruslarning mustamlakachilik siyosatini amalga oshirish uchun foydalanardilar. Buning evaziga ular katta sarmoya ham to`playdilar.

O`lkadagi ijtimoiy iqtisodiy, siyosiy, xarbiy hamda iqtisodiy shart-sharoit kitob nashr qilishga olib kelgan asosiy sabablardan biri bo`ldi.

Shunday qilib, Turkistonda XIX asrning ikkinchi yarmida kitob bosish keng yo`lga qo`yildi. Natijada, Rossiya imperiyasi hukumati o`z oldiga qo`ygan muhim vazifalarni hal qilish imkoniyatiga erishdi¹.

Bundan tashqari, Sharqda kitob nashri Evropadagiga qaraganda, o`ziga xos xususiyatga ega bo`lib, kitoblarning asosiy qismi litografiya usuli bilan chop etilar edi. Matbaa usuli bilan chop etish harf terishni, turli shriftlar, bosma mashina va boshqa texnik vositalar singari rivojlangan matbaa bazasini yaratishni talab qilar edi. Shu bilan birga, joylarda nashr ishlari mutaxassislarini tayyorlash muammosini yuzaga keltirdi, harflarning murakkabligi anchagina qiyinchiliklarni keltirib chiqarar edi. Rus xukumati o`z ehtiyojidan kelib chiqib, kitob nashri uchun moddiy–texnik baza yaratdi. Nashr ishlarining yo`lga qo`yilishi kitoblarni aholi orasiga chuqurroq kirib borishiga yo`l ochdi, yurtimizda matbuot ishi rivojlanishiga turtki bo`ldi, fan–madaniyatdagi ilg`or, shuningdek, yot g`oyalarning tarqalishiga yordam berdi.

Turkiston o`lkasini mute yurtga aylantirish maqsadida uning tabiiy sharoiti, iqtisodi, ishlab chiqarish kuchlari, mahalliy aholi turmush tarzini tadqiq etgan rus olimlarining kitoblari dastlabki bosma nashrlari hisoblanardi.

Alisher Navoiy nomidagi O`zbekiston Milliy kutubxonasida “Turkiston to`plami” (“Turkestanskiy sbornik”) nomli g`oyat qimmatli majmua saqlanadi. 594 jildidan iborat bu kitoblar majmui O`rta Osiyo, asosan, Turkiston tarixi uchun katta ilmiy ahamiyatga ega. Fidoyi rus bibliografi V.I. Mejov tomonidan 1867 yildan 1888 yilgacha “To`plam” ning 416 jildi tuzilgan. 1888 yildan 1907

¹ Муродов А. Ўрта Осиё хаттотлик санъати тарихидан. – Т.: Ўзбекистон, 1972. – Б. 26.

yilgacha mablag' etishmaganligi sababli uni tuzish to'xtab qolgan. U "To'plam" ni Sankt-Petersburgda tuzib, Toshkentga – Turkiston ommaviy kutubxonasiga jo'natib turgan. 1907–1916 yillar mobaynida bibliograf va sharqshunos olimlar: N.V.Dmitrovskiy, A.A.Divaev, A.A.Semyonov, Yu.F.Bonch-Smolovskiy, I.I.Geyer va Turkiston ommaviy kutubxonasi direktori I.P.Zikov tomonidan 175 jildi tuzilgan. Faqatgina, 1939 yili respublikadagi kutubxona xodimi E.K.Betger tomonidan qolgan 3 (592, 593, 594) jildini tuzadi. "To'plam" salkam 11000 ilmiy maqola va kitobni o'z ichiga oladi. Majmuani bibliograf A.G.Qosimova o'zining "Turkestanskiy sbornik" (1985) kitobida quyidagicha ta'riflaydi: "Turkiston tarixi, etnografiyasi, arxeologiyasi, iqtisodi, jug'rofiyasi va bu o'lka xalqlari madaniyati to'g'risidagi maqola va kitoblardan tashkil topgan bu "To'plam" Oktyabr' inqilobigacha bo'lgan O'rta Osiyoni o'rganishda ilmiy tadqiqotchilar uchun muhim manba bo'lib xizmat qiladi"¹.

Turkiston to'plamining noyoblighi shundaki, XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida Rossiya va boshqa mamlakatlarda rus, frantsuz, ingliz, nemis, italyan, ispan va lotin tillarida chiqqan gazetalar, jurnal hamda kitoblarning faqat Osiyo, asosan, Turkiston o'lkasi haqida yozilganlari bu yerga to'planib, shunday nodir majmua yaratilgan. Bu haqda "Golos" gazetasi 1878 yildagi 5-sonida shunday yozadi: "To'plamda faqat rus matbuotidagina emas, balki boshqa xalqlar matbuotida ham Turkiston haqida yozilgan maqolalar va yirik asarlar yilma-yil, izchil yig'ib to'plangan"². Shu bilan birga, "To'plam" da Hindiston, eron, Afg'oniston, Xitoy, Mo'g'uliston tarixiga oid manbalar ham mavjud.

"To'plam" ning 8, 40, 53, 58, 67, 77 va boshqa jildlariga ruslarning Toshkent, Farg'ona, Samarqand, Buxoro, Xivaga qilgan harbiy yurishlari va mahalliy xalqlarning bosqinchi dushmanga ko'rsatgan qarshiliklari haqida

¹ Абдуазизова Н.А. Туркестон матбуоти тарихи (1870–1917 й.й.). – Т .: Академия, 2000. – Б. 35.

² Абдуазизова Н.А. Миллий журналистика тарихи (Генезис ва эволюция). Биринчи жилд, – Т.: Шарк, 2008. – Б. 73.

manbalar kiritilgan. Mazkur manbalar ko'p tillarda yozilganki, bu hol "To'plam" ning ilmiy ahamiyatini yanada oshiradi ¹.

V.I. Mejoyning "Turkiston to'plami" nodir kitob bo'lib, juda katta bibliografik ahamiyat kasb etadi. Unga O'zbekiston bibliograflari tomonidan maxsus adabiyotlarda keng sharh berilgan. "Turkiston to'plami" o'lka haqida barcha ma'lumotni bilmoqchi bo'lgan birinchi general-gubernatori graf K.P. fon Kaufman farmoyishi bilan boshlangan. "Turkiston to'plami" ning S.I. Idarov tomonidan tuzilgan besh jildi ham bor.

Shunday qilib, ayrim kamchiliklarga qaramay, "Turkiston to'plami" XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshida Turkiston o'lkasi va O'rta Osiyo tarixini o'rganuvchilar uchun muhim manba hisoblanadi.

Mazkur an'anani davom etirar ekan, taniqli tarixchi, kitobshunos, o'lkashunos G.N.Chabrov "Turkiston to'plami" ga o'xshab "O'zbekiston madaniy hayoti yilnomasi" bibliografik qo'llanmasini tuzdi. U 1940 yildan 1973 yilgacha bo'lgan davrni o'z ichiga olgan. Bu "Pravda Vostoka", "Tashkentskaya pravda", "Komsomolets Uzbekistana", "Vecherniy Tashkent" gazetalari va boshqa davriy nashrlardan qirqmalaridir. U 58 jild bo'lib, 11 mingta maqoladan iborat, 6375 varaqni tashkil etadi. Undan foydalanish oson, chunki to'plamdagi ma'lumotlar tadrijiy tarzda qo'yib chiqilgan, manbalar ko'rsatilgan. Hozirgi vaqtda bu bibliografik ma'lumotnoma Samarqand Davlat universiteti kutubxonasida saqlanmoqda va u o'lka tadqiqotchilari uchun yaxshigina yordam berishi mumkin².

1868 yili Toshkentdagi o'lka shtabida birinchi bosmaxona ochildi. Unda N.A.Severtsovning "Chu va Norin cho'qqilaridagi mamlakat va u orkali Xitoy Turkistoniga o'tish yo'llari to'g'risida ma'lumotlar" nomli kitobchasi rus tilida nashr etildi.

¹ Курахмедов А. "Туркистон тўплами" да Самарқанд // "Ўзбекистон адабиёти ва санъати". – Т., 1996. – №3. – Б. 14.

² Бобожонова О. Ўзбекистоннинг кўхна китоблари // "Мозийдан садо". – Т., 2006. – №4. – Б. 8.

Asta–sekin o`lkaning boshqa shaharlarida ham bosmaxonalar ochiladi. 1880 yili YAngi Marg’ilon, 1905 yili Andijonda bosmaxonalar ish boshladi.

Mahalliy tilda nashr etilayotgan adabiyotlar rus tilidagiga nisbatan dengizdan tomchidek edi. Ba`zi bosmaxonalarning moddiy bazasi anchagina qashshoq, shuning uchun ular asosan tipolitografiya va litografiyadan iborat edi. Shunga qaramay, o`zbek tilidagi kitoblar salmog’i ortib bordi. Litografiya usuli bilan o`zbek mumtoz adabiyoti namunalari, eski qo`lyozma matnlardan olingan nazm va diniy asarlar, zamondosh shoirlarning she`rlari, folklor, tarjimalar, shuningdek, o`quv qo`llanmalar ham nashr etildi. Marg’ilonning eski shahar qismidagi Hoji Muhammad Azimjon Marg’iloniy bosmaxonasida 1889–1890 yillar Farididdin Attorning “Mantiq ut–tayr” asari, “Ta`birnomai Xorun ar-Rashid”, “Fihi kaydoniy” (Musulmon qonunshunosligi) va Xo`ja Hofiz Sheroziyning she`rlar to`plami nashr etildi. 1902 yilda Husayn Makaev, Hoji Muhammad Azimjon Marg’iloniy va boshqalar xususiy litografiya egalari bo`lishdi. G`ulom Hasan Orifjonov litografiyasida 1908–1913 yillarda Alisher Navoiyning kitoblari 10 martadan ko`p nashr qilindi. Namangan uyezdi, To`raqo`rg`on qishlog`ida Ishoqxon Ibrat tomonidan 1909 yilda ochilgan “Matbaai Ishoqiya” litografiyasi “Ibrat lirikasi she`rlar to`llami” (1909) va “Yozuv tarixi to`plami” (1911) kabi asarlarni nashr qildi¹.

Davlat, jamoat va siyosat arbobi, Turkistonning yirik sarmoya-dorlaridan biri Obidjon Abdulxoliq o`g`li Mahmudov Farg’ona taraqqiyparvarlarining peshqadam vakili edi. Uning tashabbusi va bevosita rahbarligi ostida 1914 yili Qo`qonda bosmaxona tashkil qilingan edi. Bu bosmaxonada faqat “Sadoi Farg’ona” gazetasi bosilgan, xolos.

Rus hukumati boshqa sohalar kabi noshirlik ishlaridan ham o`lkani ma`naviy jihatdan tobe qilish, umumruslashtirish siyosatini kuchaytirish kabi strategik vazifalarni hal etishda foydalanishga intildi. Ammo rus hukumatining

¹ Абдуазизова Н.А. Миллий журналистика тарихи (Генезис ва эволюция). Биринчи жилд, – Т.: Шарқ, 2008. – Б. 74.

mafkuraviy va ma'muriy tadbirlariga qaramay, keng xalq ommasi, milliy ziyolilar asriy an'analarni asrab qolishga intildilar, o'tmish ma'naviy merosini boyitishga kirishdilar. Noshirchilik ishlarida milliy taraqqiyot uchun o'ziga xos shafqatsiz kurash avj oldi. Bu esa, o'z navbatida, Turkistondagi milliy ozodlik kurashining ajralmas qismi bo'lib qoldi.

Matbaachilik sohasida raqobatga chiday olmagan N.A.Kugelning shtampgraver (o'ymakorlik ustaxonasi) bosmaxonasini, 1907 yilda Samarqandda faoliyat yuritgan aka-uka Ignatevlar litografiyasi hamda Sliyanov va Nazarov matbaalari shirkatini G.Demurov litografiyasi o'ziga ko'shib oldi. Natijada 1908 yidda bu qadimiy shaxarda katta litografiya vujudga keladi. Bu erda dastlab choy yorliq (etiketka)lari bosmadan chiqarilgan. 1904 yil 1 maydan V.M. Morozov tashkilotchiligida rus tilida "Samarkand" gazetasi nashr etila boshlagan. Unga avval N.V. Bototin, keyinchalik P.V. Pozdnyakov, G.D. Demurovlar noshirlik qilishgan¹. Ommaviy-ijtimoiy, adabiy yo'nalishda nashr etilgan mazkur gazetada V. Vyatkin, V. Bartol'd, N. Likoshin, Yu. Yakubovskiy kabi o'lkashunoslarning maqolalari, "Maxalliy xabarlar" va "O'lka bo'ylab" ruknlari ostida Turkistonning uzoq shaharlaridagi hayot ham aks ettirilgan maqolalar berib borilgan.

1906 yil 16 yanvarda ushbu gazeta ham, bosmaxona ham podsho senzurasidan tomonidan yopiladi. Ko'p o'tmay G.D. Demurov katta jarima to'lab bosmaxonani qayta ishga tushirishga muvaffaq bo'ladi. Gazeta esa 1906 yil 5 fevraldan boshlab kundalik nashr – "Zarafshan" nomi bilan chop etila boshlaydi. Xullas, "Samarqand" gazetasi va uni nashrdan chiqaruvchi bosmaxona ham podsho senzurasidan bir necha bor sudlanadi va yopiladi. Biroq, bokulik savdogar G. Demurov har safar katta jarima to'lab, faoliyatini yana davom ettiraveradi.

Manbalarda qayd etilishicha, bu matbaa o'z imkoniyatlarini kitob chop etishda ham sinab ko'rgan. Ammo ko'p mexnat talab qilinib, daromadning kam bo'lishi bokulik savdogarni qanoatlantirmagan. Buning ustiga gazetaga nisbatan

¹ Бобхонов А. Уч асрга юзланиб // "Миллий тикланиш". 2000. 24 июль.

nazorat idoralari hamda sudlar tomonidan qo'yilgan talab, jarimalardan G.I. Demurov juda charchagan. U ishni K.X. Sliyanovga topshirib, o'zi Tiflis (Tbilisi) da yashay boshlagan. O'sha erdan turib bosmaxonaning katta muammolarini hal qilish bilan cheklangan.

1913 yildan boshlab Samarqandda avvaliga haftada ikki marta, so'ngra kundalik nashrga aylangan "Samarqand" gazetasida muharrir-noshiri Mahmudxo'ja Behbudiy faoliyat olib borgan. Gazeta o'zbek, rus, tojik tillarida chop etilgan.

G.I. Demurov tipolitografiyasi Oktyabr' to'ntarishidan so'ng xususiylashtirilgunga qadar turli bosma mahsulotlaridan tashqari "Qissai Ibrohim bin Adham", Mirzo Bedil asarlari, o'quv qo'llanmalari ko'plab nusxada nashr etgan. Tipolitografiyaning O'rta Osiyoda inqilobdan oldin tashkil topgan bosmaxonalardan (90 ta) farqi shu ediki, uni K.P. fon Kaufman tashkil etgan "Turkestanskije vedomosti" (1870) nashr etiladigan harbiy shtab bosmaxonasi bilan qiyoslaganda G.I. Demurov tipolitografiyasining ustunligini ko'ramiz. Jumladan, bu xususiy tipolitografiya matbaachilari kasb darajasining yuqoriligi, matbaa uskunalarining xilma-xilligi va ular asosan, xorijdan keltirilganligi, bosma mahsulotlarni ikki xil rangda yuqori sifatda bosilganligida ko'rinadi¹.

Dastlabki matbaa asarlarining mazmuni va xarakteri qanday edi?

Boshlang'ich davrda asosan diniy kitoblar bosildi. Bunday kitoblar siyosiy maqsadlarni niqoblovchi vosita darajasiga olib chiqilib, davlat va mahalliy xalq munosabatlarini tartibga solish vazifalarni hal qilishda muayyan rol o'ynadi.

Turkistondagi rus ma'murlari, ayni vaqtda mahalliy burjuaziya vakillari ham diniy kitoblardan o'z maqsadlari yo'lida keng foydalandilar. Rus imperatorini, general-gubernator "hazrati oliylarini" ulug'laydigan kitoblar ko'plab nashr etildi. Bu xildagi kitoblarda ular Allohning farishtalari bilan teng qo'yildi.

¹ Бобхонов А. Уч асрга юзланиб // "Миллий тикланиш". 2000. 24 июль.

Kitob nashr qilishning rivojlanishi Turkistonda maxsus senzura qo`mitasi ta`sis etish ehtiyojini tug`dirdi. 1883 yilda N.P. Ostroumov Turkiston o`lkasida ilmiy–adabiy faoliyatni rivojlantirishni ko`zda tutib, Turkiston general–gubernatori huzurida mahalliy senzura qo`mitasi ta`sis etishni taklif qildi. Ammo bu taklif amalga oshmadi. General-gubernator mahkamasidagi rus ma`murlari bu erda bunday faoliyat uchun asos yo`q deb hisobladilar. Shu sababli bu taklifga qarshi chiqdilar. Garchi senzura qo`mitasi ta`sis etilmagan bo`lsa ham, nashr etiladigan asarlar senzuradan o`tmasdan qolmas edi. Nashr qilinadigan har bir kitob uchun alohida sensor tayinlash to`g`risida qaror qabul qilindi. Bosmaxonalar faoliyati ustidan nazorat olib borish politsiya boshlig`iga topshirildi.

Shunday qilib, rus hukumati boshqa sohalaridagi kabi nashr ishlaridan ham o`lkani ma`naviy jihatdan tobe qilish, umumruslashtirish siyosatini kuchaytirish kabi strategik vazifalarni hal etishda foydalanishga intildi. Ammo bosqinchi hukumatning mafkuraviy va ma`muriy tadbirlariga qaramay, keng xalq ommasi, milliy ziyolilar asriy an`analarni asrab qolishga intildilar, o`tmishimizning ma`naviy merosini boyitishga harakat qildilar. Nashr ishlarida o`zlariga xos milliy taraqqiyot uchun shafqatsiz kurash ketdi. Bu esa o`z navbatida Turkistondagi milliy ozodlik kurashning ajralmas qismi bo`lib qoldi¹.

Kitoblar Turkiston halklarining madaniy hayotida sezilarli rol o`ynadi. Ammo kitob nashr etish yil sayin oshib borsa ham, u kunning talabiga javob berolmasdi. Dolzarb siyosiy vazifalarni hal etish va muhim zamonaviy masalalarni muhokama qilish uchun kundalik adabiyot – gazeta va jurnallar chiqarish zarurati tug`ildi. Turkistonda vaqtli matbuot ana shu zaminda vujudga keldi.

Xullas, XIX asrning ikkinchi yarmiga qadar butun O`rta Osiyoda birorta milliy matbaa korxonasi bo`lmagan. Respublikamizda hozir 120 dan ziyod bosmaxona faoliyat ko`rsatmoqda. Respublikamizda hukumat qarori bilan barpo

¹ Каттабоев А. Ўзбекистон китоб наشري тарихига доир // Ўзбекистонда ижтимоий фанлар. – Т., 1998. – №2. – Б. 43.

etilgan birgina “Meros” kitob nashriyotining o`zi 1997 yilga qadar jami 2100 bosma tabokdan ziyod 740 nomda kitob va risola chop etdi. Shuningdek, “Sharq” nashriyot-matbaa aktsiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida 60 dan ziyod nomda gazeta chop qilinmoqda. 1999 yilda O`zbekiston kitob palatasining arxivi ma`lumotiga ko`ra, O`zbekistonda 886 nomda adadi 15 million 744 ming bo`lgan 162 million 367 ming bosma taboq hajmda kitob nashr etilmoqda.

1.2. Turkiston o`lkasiga rus matbuotining kirib kelishi va mahalliy xalqlar hayotiga ta`siri

Rossiya imperiyasi O`rta Osiyo xonliklarini istilo qilgandan so`ng, Qo`qon va Buxoro xonliklaridan bosib olingan erlarda o`zining tayanch markazi – Turkiston general–gubernatorligini tuzdi. Uning markazi Toshkent shahri edi. 1870 yildan Toshkentda general–tubernatorlikning rasmiy organi – “Turkestanskije vedomosti” va uning ilovasi “Turkiston viloyatining gazetisi” chiqib boshladi.

“Turkestanskije vedomosti” 1870 yil 28 aprel (10 may kuni Turkiston general-gubernatori Kaufman farmoniga binoan bosilib chiqdi¹. “Turkestanskije vedomosti” – Turkistondagi to`ng`ich rasmiy bosma gazeta hisoblanib, u O`rta Osiyoda vaqtli matbuotga asos soldi.

“Turkestanskije vedomosti” ning 1870 yilda 17 ta soni; 1871 yildan boshlab haftasiga 1 marta; 1903 yil dekabridan 3 marta; 1907 yildan 4 marta chiqib turdi va nihoyat 1907 yil iyulidan boshlab kundalik gazetaga aylantirildi. Uning oxirgi soni 1917 yil 15 dekabrda chiqdi².

“Turkestanskije vedomosti” gazetasining 47 yil mobaynida 6406 soni bosildi. “Turkestanskije vedomosti” gazetasi general-gubernator Kaufman tomonidan tahrir qilinib chiqarildi. Uning birinchi muharriri qilib N.A. Mayev tayinlandi.

¹ Ўзбекистон Республикаси Марказий давлат архиви (ЎЗР МДА), И. 1 – фонд, 1 – рўйхат, 49 – иш, 73 – варак.

² Абдуазизова Н.А. Миллий журналистика тарихи (Генезис ва эволюция). Биринчи жилд, – Т.: Шарқ, 2008. – Б. 91.

“Turkestanskije vedomosti” gazetasini N.A. Mayev 1870–1892 yilgacha; 1892 yil 20 noyabrdan 1899 yil 17 dekabrgacha A.P. Romanovich; 1899–1901 yillarda S.A. Geppener va 1901 yil 5 noyabrdan 1907 yil 9 yanvargacha N.G. Malitskiy tahrir qilgan. Gazeta rus mustamlakachilik idora usulini o`tkazish, Turkiston xalqlarini sodiq fuqarolik ruhida tarbiyalash, diniy jaholatni qo`llab-quvvatlash siyosatini amalga oshirishga da`vat etgan. To`g`rirog`i, gazetaning dasturi Ichki ishlar vazirligi tomonidan chizib berilgan bo`lib, u asosan to`rttagina moddadan iborat bo`lgan.

1. Oliy farmoyishlar. Oliy telegrammalar, viloyat aholisiga taalluqli bo`lgan mukofot va yordamlar, tantanali kunlar to`g`risida qisqa ma`lumotlar.
2. Turkiston o`lkasiga tarqalishi lozim bo`lgan umumhukumat farmoyishlari.
3. Rus podsholarining hayotidan olingan qisqa hikoyalar, mahalliy va boshqa xil axborotlar.
4. Turkiston o`lkasidagi pochta-telegraf okrugi va boshqa hukumat muassasalarining e`lonlari hamda xususiy e`lonlar.

Ushbu dasturga asosan “Turkestanskije vedomosti” gazetasida: 1) rasmiy; 2) ichki axborot; 3) xalqaro axborot; 4) nafis adabiyot; 5) mahalliy axborot bo`limlari tashkil etilgan¹.

“Turkestanskije vedomosti” o`zining rasmiy bo`limida asosan Turkiston general-gubernatorining buyruq, farmoyishlarini bosardi. Boshqa bo`limida esa o`lkaning tarixi, geografiyasi, etnografiyasi va statistikasiga oid maqolalar yoritilar edi. Darhaqiqat, bunday maqolalarning aksariyati O`rta Osiyoni birinchi bo`lib tekshirgan, uning geografiyasi va etnografiyasiga oid juda ko`p asarlar yaratgan N.A. Mayev qalamiga mansubdir. Shuningdek, gazeta sahifalarida tarixiy va ilmiy harakterdagi materiallarni ko`plab uchratish mumkin. O`rta

¹ Абдуазизова Н.А. Ўзбекистонда ижтимоий–сиёсий, адабий–бадий журналлар ва уларнинг тарихий–тадрийжий таснифи масалалари (XIX аср охири – XX аср бошлари): Тарих фан.докт. ... дисс. – Т., 1997. – Б. 25.

Osiyoni dastlabki tekshirgan akademik V.V. Bartol'd, akademik L.S. Berg, N.A. Severtsev, A.P. Fedchenko, I.V. Mushketov, I.F. Oshanin, N.N. Pantusov kabi olimlar ko'pgina maqolalarni o'lkadagi iqtisodiy, tarixiy, etnografik jihatdan o'rganishga bag'ishladilar. Turli davrlarda gazeta sahifalarida "Qirg'izlar" (etnografik ocherk), "Temurlang hayotining so'nggi kunlari", "Qo'qon tarixi haqida ocherk" va boshqa ko'pgina maqolalar bosildi. Gazeta materiallari janr e'tibori bilan xilma-xildir. Uning sahifalarida xabar, korrespondentsiyalar, ocherklar, yo'l xotiralari, publitsistik maqolalar e'lon qilingan. "Turkestanskije vedomosti" Peterburg, Moskva, Vladivostok kabi Rossiya imperiyasining boshqa shaharlarida o'zining muxbirlariga ega edi. Gazeta sonlarida o'lkaning madaniy hayotiga doir masalalar ham yoritilgan. Ayni mahalda hukumat siyosatini ifoda etuvchi rasmiy organ "Turkestanskije vedomosti" xalqning ahvoli va kurashi to'g'risida lom-lim deyilmagan. Bundan tashqari, Turkistonda o'sha davrda "Turkestan", "Turkestanskiy kur'er", "Turkestanskoe sel'skoe xozyaystvo", "Asxabad" degan boshqa rus gazetalar ham chiqa boshladi. Bu gazetalarining hammasi ham Rossiya imperiyasining mustamlakachilik siyosatini amalga oshirish uchun xizmat qildi. "Turkestanskije vedomosti" o'zbek matbuoti tarixiga ilk poydevor toshini qo'ygan to'ng'ich rasmiy gazeta sifatida o'rin egalladi. Gazeta O'rta Osiyoni, ayniqsa, Turkiston o'lkasini o'rganish sohasida ham tarixiy manba sifatida xizmati kattadir. Dastlabki kezlarda gazeta 100 nusxa, 1909 yidlan esa 853 nusxadan iborat bo'lgan.

Turkistonda birinchi o'zbek tilidagi gazeta "Turkestanskije vedomosti" ning bevosita yordami tufayli vujudga keldi. Bu gazeta "Turkiston viloyatining gazetisi" bo'lib, u 1870 yilning iyulidan 1917 yilning fevraliga qadar chiqib turdi. "Turkiston viloyatining gazetisi" 1871 yildan 1883 yilgacha Turkiston general-gubernatorining tarjimoni Shohimardon Ibrohimov va bir oz vaqtgacha Muhammadhasan Chanishev boshchiligida, 1883 yilning oxiridan 1917 yilning fevraligacha N.P. Ostroumov muharrirligi ostida chiqdi. Gazeta dastavval "Turkestanskije vedomosti" ga "Ilova" qilib chiqarilar edi. 1871 yildan u kichik

hajmda oyiga to'rt marta: ikki marta o'zbek tilida va ikki marta qozoq tilida chiqq boshladi. Bu "Ilovalar" "Turkestanskije vedomosti" tahririyati tomonidan uning mablag'i hisobiga nashr etildi. 1883 yil 30 yanvarda general-gubernator M.G. Chernyaevning 29-son buyrug'i bilan bu "Ilovalar" "Turkiston viloyatining gazetisi" ga aylantirildi. Dastlabki o'zbek tilidagi matbuot nashri – "Turkiston viloyatining gazetisi" ning (1870 yil) chop etilishida qozonlik tatarlardan Turkiston general gubernatorining tarjimoni Sh. Ibrohimov va keyinchalik M.A. Chanishevlarning muharrirligi katta rol o'ynagan¹.

Turkiston general-gubernatori general-ad'yutant fon Rozenbax 1885 yil yanvarida mahalliy xalq orasida rus tilini targ'ib qilish uchun "Turkiston viloyatining gazetisi" ni ikki tilda: o'zbek va rus tillarida nashr etish haqida rasmiy buyruq bergan edi. "Turkiston viloyatining gazetisi" o'zbek madaniyati, san'ati va adabiyotining taraqqiyotida alohida o'rin tutadi. "Turkiston viloyatining gazetisi" sahifalarida tarix, etnografiya, arxeologiya, numizmatika fanlariga oid o'nlab maqolalar chop etib borildi. "Turkiston viloyatining gazetisi" sahifalarida Evropa fan-texnikasi, adabiyot va san'ati, O'rta Osiyolik va yunon olimlari, faylasuflarining tarjimai hollari, ijodiy faoliyati, hayotlarining qiziqarli tahsinga sazovor damlari haqida ma'lumotlar berib borildi. Gazetaning tabiiy-ilmiy maqolalari, tarixiy ma'lumotlari, falsafa, tibbiyot, axloq-odob masalalariga oid materiallari o'sha davrdagi ilg'or kishilarning dunyoqarashiga, ularning ongiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Abdulla Avloniy "Turkiston viloyatining gazetisi" haqida yana shunday yozadi: "Bu gazeta eski hukumatning moddiy ko'magi bilan 1869 yildan chiqq boshladi va fevral o'zgarishigacha to'xtamasdan davom etdi. Bu gazeta, dastlab chiqishida Ibrohimov degan bir totorning, undan keyin Novikov, Ostroumov, Ibn Yaminbeklar muxarrirligi ostida chiqib keldi. Bu gazeta Turkiston o'zbeklari

¹ Расулов А.Н. Туркестон маданият ҳаётида татарлар // Ижтимоий фикр, инсон ҳуқуқлари. – Т., 2004. – №1. – Б. 128.

uchun birinchi gazeta bo'lg'oni kabi erlik xalqni razolat, safolatg'a boshlag'on tarixiy bir qora gurux, gazetasi edi"¹.

Gazetaga Cho'lpon bergan ta'rif ham diqqatga loyiq: "Turkistonda gazetchilikning tarixi, ibtidosi mana bundaydir: U erda birinchi daf'a nashr bo'lgan gazeta "Turkiston viloyatining gazetasi" ismida Turkistonni istilo etgan generallar tarafidan nashr etilgan, ruslig'ning shavkat va saltanatini ko'hna madrasalarning tumtaroq tili ila osmonlarga chiqargan bir gazeta edi. Turkistonni ruslar istilo va g'asb etganlaridan bir necha yil so'ng chiqqan bu gazetaning u vaqtdagi muharriri totor chinovnigi, rus generallari ila birlikda Turkistonni fath etishga kelgan totor fotihlaridan Ibrohimo'f edi. G'oyat buzuq va anglashilmas bir lison ila yozilgan bu gazeta bir necha sana so'ngra Ibrohimo'fdan mashhur missioner Nikolay Pyotr o'g'li Ostraumo'fga qoldi"².

O'zbek vaqtli matbuoti tarixi bo'yicha yirik tadqiqotchi bo'lgan Ziyoy Said "Turkiston viloyatining gazetasi" faoliyatiga ham keng o'rin beradi. Ziyoy Said o'lkadagi inqilobiy va ozodlik qarakatlariga gazetaning teskari munosabatini aniq tahlil qiladi. U o'z asarida "gazeta 1916 yilgi voqea to'g'risida bizga, o'sha vaqtning siyosiy, ijtimoiy holini, ayrim talantlarning u tarixiy bosqichlardan o'tishdagi esankirashlarini bildiradigan ko'p "qimmatli materiallar" qoldirdi. Biz bu materiallar bo'yicha diniy sxolastikani qurol qilib, rus hukumatini saqlashga undagan Turkiston din ulamosining "millat", "vatan" shiori bilan maydonga chiqib, mehnatkashlarni milliy sarmoya quli qilishga harakat qilgan, "jadid" larning o'sha vaqtdagi shu voqeaga taalluqli harakatlariga tegishli "baho" bera olamiz"³ – deb, ta'kidlab o'tadi.

Ammo adolat nuqtai nazaridan shuni aytish lozimki, ilk matbuot nashri sifatida bu gazetalar Turkiston o'lkasida davriy matbuotning shakllanishi va rivojlanishi uchun sharoit hozirladi, ommada gazetaga bosma so'zga qiziqish

¹ Абдулла Авлоний. Бурунги ўзбек вақтли матбуотининг тарихи // Туркистон, 1989. 18 июль.

² Абдуазизова Н.А. Миллий журналистика тарихи (Генезис ва эволюция). Биринчи жилд, – Т.: Шарқ, 2008. – Б. 96.

³ Зиё Саид. Ўзбек вақтли матбуоти тарихига материаллар. Танланган асарлар. – Т.: Фафур Фулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1974. – Б. 20.

uyg'otdi. “Turkiston viloyatining gazetasi” da eʼlon qilingan madaniy–maʼrifiy mavzudagi maqolalar tub aholiga mansub gazetxonlarning bilim–saviyasini oshirishga koʻmaklashdi, ularda dunyoviy ilmlar, fan va texnika, boshqa xalqlarning ilgʻor madaniy va adabiy merosiga qiziqishni kuchaytirdi.

1885 yildan boshlab gazetaning bir tomoni ruscha chiqa boshlaydi. N.P. Ostroumov muharrirligi yillarida gazetadagi sarlavhalar ham ruscha yozila boshlanadi. “Turkestanskije vedomosti” va “Turkiston viloyatining gazetasi” mustamlaka oʻlkaning madaniy hayotiga oid rang–barang xabarlarni ham yoritganki, ular tariximiz uchun qimmatli axborot beradi. Ularni tahlil etish tadqiqotchi uchun oʻlka tarixida sodir boʻlgan voqealar mohiyatini anglashga imkon yaratadi. Turkiston yodgorliklarini talon–taroj qilish masalasida ham ular bebaho manbadir.

Turkistonda rus tilida chiqqan “Sredne–Aziatskiy Vestnik” (1896), “Srednyaya Aziya” (1910-1911) jurnallari ham tariximizni oʻrganishda muhim manba hisoblanadi.

“Sredne–Aziatskiy Vestnik” Oʻrta Osiyodagi dastlabki rus tilidagi jurnal edi. “Turkestanskije vedomosti” gazetasi bunday xabar qiladi: “Smirnovga Toshkent shahrida senzuraning ibtidoiy ijozati bilan “Sredne–Aziatskiy Vestnik” oylik, ilmiy–adabiy jurnalini va uning “Novosti dnya” nomli ilovasini Geyer hamkorligida nashr qilishga ruxsat etildi”¹.

Jurnal tahririyati oldida murakkab vazifa turardi. Bu ilmiy maʼlumotlar toʻplash, Turkistonning kundalik hayot masalalariga oid dalil va ilmiy izlanishlarni umumlashtirish yoʻli bilan, erlik mahalliy aholining oʻziga xos hayotidan olingan yorqin, jonli manzaralar vositasida Oʻrta Osiyo toʻgʻrisida aniq, ravshan tasavvur berishga intildi.

“Sredne–Aziatskiy Vestnik” jurnali haqida koʻp oʻtmay poytaxt va viloyatlar matbuotida ham juda koʻp ijobiy fikrlar bildirildi. Chunonchi, “Sankt–Peterburgskie vedomosti” gazetasi jurnal “yoqimli taassurot” qoldirmoqda deb,

¹ “Туркестанские ведомости”, 1896, №18.

“Russkaya misl” esa “uzoq chekka oʻlkalarda jiddiy matbuot organi paydo boʻlgani” ni tabriklab, “U mamlakatni oʻrganish uchun koʻp ish qilishi mumkin” deb yozadi¹. Nashr etishga kech ruxsat berilganligi sababli jurnalning birinchi soni 1896 yilning martida dunyo yuzini koʻrdi. Yanvar va fevral oylarida jurnal oʻrniga Oʻrta Osiyo toʻgʻrisida maqolalarning ilmiy–adabiy toʻplami chiqarildi. “Oʻrta Osiyo” deb atalgan bu toʻplam Toshkent shahrida Evgeniy Smirnov taxriri ostida chop etilar edi. Jurnalda bilimning hamma sohalariga, asosan, Oʻrta Osiyoning tarixi va arxeologiyasi, geografiyasi va topografiyasi, statistikasi va etnografiyasiga oid ilmiy maqolalar, shuningdek, mahalliy obzor, bibliografiya va eʼlonlar bosilar edi. Jurnalning asosiy fazilati shundaki, u mahalliy musulmon aholisining turmushini tadqiq qildi hamda tarix va arxeologiyaga oid maqolalar berib bordi. E. Smirnovning “Toshkent shahri atrofidagi qadimgi joylar”, G. Andreevning “Turkistonning arxeologik jixatdan qiziqarli joylar”, N. Likoshinning “Arxeologiya ishqibozlari Turkiston taʼsis etilgunga qadar Turkiston oʻlkasida olib borilgan arxeologik qidirishlar toʻgʻrisida” ocherki, nomaʼlum muallifning “Rus otryadi dashtda, Xivaga yurishidan epizod”, V. Bartolʻdning “Oʻrta Osiyoda oriylar madaniyati toʻgʻrisida bir necha soʻz”, N.N. Kasʼyanovning “1873 yil mayda Amudaryodagi rus eshkakli flotiliyasi va Xiva yurishi toʻgʻrisidagi boshqa xotiralar” kabi maqolalar shular jumlasidandir².

“Sredne–Aziatskiy Vestnik” jurnalida bosilgan materiallar Oʻrta Osiyoning mahalliy tarixini oʻrganish uchun unchalik mufassal boʻlmasada, har holda muayyan asos edi. Binobarin, Turkiston xalqlarining turmushiga bagʻishlangan koʻplab maqolalarda ancha maʼlumotlar toʻplangan. Tarixiy manba sifatida ham jurnalning roli gʻoyat ulkan. Ammo unga tanqidiy yondoshish lozim. Chunki jurnal mualliflari arxeologik maʼlumotlarni umumlashtirib, talqin qilib berar

¹ “Средне–Азиатский Вестник”, 1896, № 10, стр. 139.

² Абдуазизова Н.А. Туркистон матбуоти тарихи (1870–1917 й.й.). – Т.: Академия, 2000. – Б. 54.

ekanlar, ular tarixiy jarayonning borishi va mohiyatini rus imperatorining islohotlarini keng targ'ib etgan holda, ochiq ko'rsatishga urinishardi.

“Sredne–Aziatskiy Vestnik” atigi bir yil chiqib turdi. Jurnal asosan ma'rifat g'oyalarini targ'ib qilgan bo'lib, o'lkada ruslar gomonidan olib borilayotgan “maorif” sohasidagi o'zgarishlar xususida alohida e'tiborni jalb etadigan maqolalar e'lon qildi. Ammo Turkistonda “Sredne–Aziatskiy Vestnik” jurnalining nashr etilganligi va uning sahifalarida o'lka to'g'risida ilmiy maqolalar, shuningdek, “Musulmonlarning muqaddas Makka shahri”, “Musulmonlarda ta'lim masalalarining qo'yilishi”, V. Bartol'dning “Bir tarixiy masala xususida”, O. Shklovskiyning “O'rta Osiyo ko'chmanchi ayollarining ahvoli” kabi yirik–yirik maqolalar ham bosilib chiqdi. A. Dobromislov “Toshkent shahridagi o'quv yurtlari” nomli maqolasida ruslar Toshkentda 1866 yili maktab ochish ishlarini boshladi, deya axborot beradi. Unda 1866 yil 1 iyulda qizlar va o'g'il bolalar uchun dastlabki umumiy rus maktabi ochilganligi ham aytiladi¹. Bu Turkiston o'lkasida ruslarning o'z ta'sir doirasini yanada kengaytirish borasidagi ilk qadami edi. Shuningdek, rus–tuzem maktablari ochilishi nafaqat mahalliy yoshlar, balki katta yoshdagi aholining ko'nglini olishga, rus hukmronligiga ko'nikishga, idora ishlarida mustabidlarga xizmat qilishga undashi uchun bosqinchilar jon-jahdlari bilan kirishganliklarini, siyosatlarini turkistonliklarning ongiga zo'rlab singdirishga bo'lgan urinishlarini yaqqol ko'rsatib turibdi.

“Srednyaya Aziya” – adabiy-ilmiy oylik jurnal 1910–1911 yillarda A.L. Kirener tahriri ostida bosilib chiqdi (5-sonidan 8-sonigacha muharrir o'rniga jurnalist E. Baranov imzolagan). Jurnalda tarix, geografiya, etnografiya, musulmonchilik, iqtisodiyot, ijtimoiy hayot, adabiyot bo'limlari bo'lib, chet el va ichki hayot sharhi, bibliografiya va e'lonlar ham berilgan. 1910 yil yanvar oyida chop etilgan, birinchi soni 156 betdan iborat bo'lib, turli xil mavzularda 22

¹ Абдуазизова Н.А. Ўзбекистонда ижтимоий–сиёсий, адабий–бадний журналлар ва уларнинг тарихий–тадрижий таснифи масалалари (XIX аср охири – XX аср бошлари): Тарих фан.докт. ... дисс. – Т., 1997.– Б. 38.

ta material mavjud. Unda G. Andreevning “Turkiston lavhalari”, V. Orlovning “O`shda qalin haqi”, M.Kotsyubinskiyning “Minoralar aro”, A. Almatinskayaning “Afsona” she`ri, A. Suigurovning “Shirin qiz” nomli dostoni bosilgan. V. Orlovning “O`shda qalin haqi”, A. Sungurovning “Shirin qiz” rivoyat–dostonida xalq afsonalaridan juda o`rinli foydalanilgan.

1910 yil fevral’ va mart oylarida jurnalning 2- va 3-sonlari chop etilib, ular asosan siyosiy va etnografik xarakterga ega bo`lgandi. Ushbu mavzudagi materiallar N. Ostroumov qalamiga mansubdir, uning maqolalarida Turkiston xalqlarining ayanchli ahvoli aks etgan. Shunday maqolalar qatoriga I. Markomichning “Ikki hayot” nomli hikoyasida ozodlikdan mahrum etilgan yigit va yolg`iz laylakning erkin hayot haqidagi g`amgin orzulari bayon etiladi. Yuqoridagi asarga hamohang tarzda G. Andreevning “Qaynota” nomli hikoyasi ham e`lon qilinadi. Bu asar Sharq ayollarining hayoti to`g`risida bo`lib, unda Jahon obrazi ham iqtisodiy, ham ma`naviy xo`rlangan ayolning qaynotasiga qarshi isyoni ifodalangan. Darhaqiqat, G. Andreev “Srednyaya Aziya” jurnalida O`rta Osiyo voqeligiga doir dolzarb mavzulardagi asarlari bilan ko`p bor qatnashgan. 1911 yildan “Srednyaya Aziya” ning dasturi va yo`nalishi avvalgi yildagidek O`rta Osiyo va umuman Turkistonga bag`ishlanadi. Jurnal asosiy e`tiborni musulmonchilik masalalariga yoki tarixiy va etnografik xarakterdagi materiallarga qaratdi. Ammo bu asarlarni bir xil mavqeda deb bo`lmaydi. “Srednyaya Aziya” jurnali faqat madaniyat, urf–odatlar, tarix, iqtisodiyot, etnografiya to`g`risidagi maqolalarnigina bosmay, balki Edvard Xoldenning Turon o`lkasining buyuk davlat arbobi, sarkardasi haqidagi “Temur Velikiy” (1910, 3–4-sonlar) asarini ham bosib chiqardi. Albatta, bunday asarning bosilishi o`z–o`zidan ko`rinib turibdiki, Turon o`lkasiga qiziqish ruslarda katta hayratlanish tuyg`usini ham uyg`otgan edi.

Bundan tashqari Turkistonda o`sha davrda “Turkestanskiy skorpion” (1907), “Turkestanskiy karakurt” (1911) satirik jurnallari, o`zbek tilida “Oyina” (1913-

1915), “Al-Isloh” (1915) jurnallari bilan birga “Al-Izoh” (1917) va “Stepnie miraji” (1914) nomli al’manaxlar ham paydo bo’ldi.

Xulosa qilib aytganda, Turkistonda rus tilidagi vaqtli nashrlar davr taqozosiga ko’ra asosiy o’rinni egalladi va ijtimoiy-siyosiy yo’nalishdagi jurnallar chiqarildi.

Rus istibdodi har qancha kuchli bo’lmasin, xalqning ruhini o’ldira olmadi. O’tgan asrdayoq o’lkadagi harbiy–siyosiy tazyiq tufayli o’zbek xalqining sabr kosasi to’lganligini rus amaldorlarigina emas, balki ba’zi ilg’or rus ziyolilari ham tushunishgan edi.

II BOB. TURKISTONDA MILLIY RUHDAGI MATBUOTNING VUJUDGA KELISHI

2.1. Jadidlar tomonidan chop etilgan gazeta va jurnallar

Rus hukumati mahalliy xalqlar ong-bilim darajasining yuksalishidan aslo manfaatdor emasdi. Shu bois u milliy ongning yuksalishiga xizmat qiladigan vositalarning, jumladan, tub aholiga mo'ljallangan milliy tildagi davriy nashrlarning mavjud bo'lishiga uzoq muddat yo'l qo'ymadi, tub aholiga ishonchsizlik bilan qaradi. 1906 yilga qadar butun Turkistonda general-gubernatorlikning rasmiy nashri hisoblangan "Turkiston viloyatining gazetisi" dan bo'lak boshqa birorta milliy gazeta nashr qilinmaganligini faqat shu bilan izohlash mumkin. Butun ijtimoiy hayot Turkistonning rus qismidagina kechar edi. Mahalliy aholini bu hayotga jalb qilmoq uchun hech bir jiddiy harakat qilinmadi. Hatto mahalliy millatlarga mansub mualliflar hamkorligidan foydalangan rasmiy nashr hisoblanmish "Turkiston viloyatining gazetisi" muxarriri: "Mahalliy aholiga mansub kishilarni hamkorlikka jalb qilib bo'lmaydi, chunki ular matbuot shartlarini tushunmaydilar va o'z xabarlarida shaxsiy manfaatlaridan voz kecha olmaydilar"¹, - deb hisoblagan edi.

Turkistonda o'zbek tilidagi dastlabki mustaqil nashrlar asrimizning boshidagina, aniqrog'i 1905–1907 yillardagi birinchi rus inqilobi davrida, "Turkiston viloyatining gazetisi" chiqa boshlaganidan salkam qirq yil o'tgandan

¹ Пидяев Т. Матбуот миллат чироғи. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 1999. – Б. 5.

keyingina vujudga keldi. Bu shubhasiz, oʻlka ijtimoiy hayotida tarixiy ahamiyatga molik muhim voqea edi. Inqilob zarbasidan sarosimaga tushgan rus hukumati matbuot sohasida ham yon berishga majbur boʻladi. Ilgʻor musulmon ziyolilari bundan foydalanib, davriy nashrlar chiqarish toʻgʻrisida ruxsatnoma olishga erishdilar. Shunday qilib, avval Toshkentda, keyinroq Samarqand, Qoʻqon va Buxoroda birin–ketin ijtimoiy–siyosiy va adabiy mazmundagi bir qator oʻzbekcha davriy nashrlar tashkil topdi. Ularning tashkilotchilari, muharrirlari va yetakchi mualliflari XX asr boshida Turkistonda maʼrifatchilik zamirida yuzaga kelgan jadidchilik harakatining mafkurachilari boʻlishgan. Jadidlar istilochilar va mahalliy mustabidlar oyogʻi ostida toptalgan Turkiston oʻlkasini savodli, maʼrifatli, taraqqiyotga erishish, obod yurtga aylantirish orzusi bilan yashadilar va matbuotni shu orzuga erishish yoʻlidagi qudratli vosita deb bildilar. Turkiston jadidlarining yetakchi namoyondalari Maxmudxoʻja Bexbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniylar taraqqiyparvar yoʻnalishdagi oʻzbek matbuotini shakllantirishga katta hissa qoʻshdilar. Mahmudxoʻja Behbudiy milliy jurnalchilikka asos soldi. U tashkil etgan “Oyina” jurnali (1913–1915 y.) oʻzbek tilida chiqqan birinchi jurnaldir. Ikki yil davomida uning 68 ta soni (jami 1720 bet) nashr etilgan. Soʻnggi son 1915 yil 15 iyunda chiqqan¹.

Jadidlar milliy davriy nashrlar faoliyatini tashkil etish va yoʻlga qoʻyishda mahalliy rus matbuoti hamda Rossiyaning turli hududlarida tatar tilida nashr qilingan gazeta va jurnallar, birinchi galda buyuk maʼrifatchi Ismoilbek Gasprinskiy muharrirligida chiqqan mashhur “Tarjumon” gazetasining ish tajribasiga tayandilar².

Respublikamiz Prezidenti Islom Karimov “Turkiston” gazetasi muxbirining savollariga bergan javoblarida shunday deydi: “Asrimiz boshlarida jadidlarning oʻz hisobidan maktablar, kutubxonalar, qiroatxonalar, teatrlar, roʻznomalar tashkil etganliklarini bir eslaylik. Nahotki bugun yurtimizda ana shunday saxovat

¹ Нишонов Г.У. Ўзбек публицистикасининг шаклланиши ҳамда ривожланишида “Ойна” журналининг ўрни ва аҳамияти : Филология фан.ном. ...дисс. – Т., 2008. – Б. 45.

² Абдуазизова Н.А. Туркiston матбуоти тарихи (1870–1917 й.й.). – Т.: Академия, 2000. – Б. 54.

buloqlari qurib qolgan bo'lsa!... Axir to'kib–sochib qilinayotgan to'rtta to'y o'rniga bitta maktab qursa bo'ladi–ku! Axir shu maktabda begona emas, o'zimizning farzandlarimiz, ertaga sizni bizning o'rnimizga keladigan, chirog'imizni yoqadigan, shu Vatanga egalik qiladigan o'g'il qizlarimiz o'qiydiku!"¹. Bu so'zlar asr boshida yashagan, o'z millatining yorqin istiqboli xaqida qayg'urgan jadidlar hayoti va faoliyati biz uchun ibrat ekanligining, ular ilgari surgan g'oyalar bugungi kunda xam o'z dolzarbligini yo'qotmaganligini isbotidir.

Dastlabki soni 1914 yil 4 aprelda chiqqan, tashkilotchisi jadid Ubaydullaxo'ja Asadullaxo'jaev bo'lgan "Sadoi Turkiston" gazetasining dastlabki sonlarida ham "pul topib, aql topmagan", nom chiqarish uchun topganini isrofli to'ylarga sarflashni ma'qul ko'radigan, yo'lidagi xayriya ishlaridan o'zini chetga oluvchi "qurumsoq boylar" keskin tanqid ostiga olingan edi. Gazetaning bu chiqishi respublikamiz Prezidentining fikriga, u kishi e'lon qilayotgan farmonlarga batamom xamohang keladi².

XX asr boshidagi o'zbek milliy matbuoti tarixida "Taraqqiy" (1906) gazetasi alohida o'rinni egallaydi. Bu gazeta ozod, ma'rifatparvarlik g'oyalarini ilgari surdi, jadidlarning qarashlariga asoslanib, Turkistonda istiqlolning ma'naviy zamini masalasiga katta e'tibor berdi, ilm–ma'rifatni ana shu istiqlol ma'naviy zamini deb bildi va shu masalani hamisha diqqat markazida tutdi, o'zbek millatining jaholatdan qutilishi, taraqqiy topishi haqida qizg'in bahs yuritdi, demokratik tartiblar uchun kurashdi. "Bu gazeta, - deb yozgan edi atoqli o'zbek ma'rifatparvari Abdulla Avloniy, – elning sevib o'qiy turgan bir gazetasi bo'la oldi. Bu gazeta o'sha zamon musulmon gazetalari ichida eng so'li bo'lib, hukumatga va uning ma'muriyatiga qarshi o't ochdi. Bu gazeta erli yosh yozuvchilarga sahifasidan keng o'rin berdi"³.

¹ Пидаев Т. Матбуот миллат чироғи. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 1999. – Б. 6.

² Пидаев Т., Ҳалимова С. Убайдулла Асадуллаҳўжаев ва "Садои Туркистон" газетаси // Ўзбекистон матбуоти. – Т., 1997. – №1. – Б. 14.

³ Абдулла Авлоний. Бурунги ўзбек вақтли матбуотининг тарихи // Туркистон. 1989. 18 июль.

“Taraqqiy” ning adabiyotlardagi talqini masalasi hususida ham fikr bildirmoqlik mustaqil mulohazalar uchun foydadan xoli emas. Turkistonda nashr etilgan ilk gazeta “Taraqqiy” haqida shu paytgacha bir qator tadqiqotlar yaratildi.

“Turkistonda matbuotning na holda, na darajada oʻldigʻini imkon boricha koʻrsatarmiz”, deb yozgan ilk matbuot tadqiqotchisi Choʻlpondir: “Taraqqiy – taraqqiyparvar bir gazeta boʻlib, muharriri ichki Rusiya totorlaridan Ismoil Obidiy yoʻldosh edi. Oktyabr inqilobidan soʻngra bu kishi soʻl susiyolist revolyusioner firqasi vakili oʻlaroq doxiliya koʻmisor mansabinda boʻlindi. Ikki oy qadar davom etgandan soʻngra xukumat tarafidan bekitildi”¹.

Bu mavzuda, shuningdek, Abdulla Avloniyning “Burungʻi oʻzbek vaqtli matbuotining tarixi” axborotnomasini ham dalil sifatida koʻrsatish mumkin. Unda muallif gazeta haqida qisqa va aniq fikrlarni bayon etgan: “Taraqqiy” gazetasi Ivan Geyerning toʻxtalgʻon gazetasi oʻrniga chiqqan, desa mumkindir. Uning obunachilarining qolgʻa(n) haqiga “Taraqqiy” gazetasi yuborildi. Bu gazeta tez fursatda shunday shuhrat qozondiki, hatto gazeta muharriri boʻlgʻon Ismoil Obidiyga “Taraqqiy” ismi (laqabi) berildi. Hozirgacha xalq Ismoil Obidiyning ismini Taraqqiy deb yuritalur².

“Taraqqiy” gazetasi haqida Ziyo Saidning “Jadidlar va ularning matbuotiga bir qarash” maqolasida huddi shunday maʼlumotlarni uchratish mumkin.

Ziyo Saidning “Oʻzbek vaqtli matbuoti tarixiga materiallar (1870–1927)” asarida u “Qora guruh ulamolari bilan qattiq tortishdi, ularni xalq orasida obroʻlarini tushirishga harakat qildi. Orasira hukumatga ham tegib turdi. Mazkur gunohlari uchun 20–nomeriga yetganda hukumat tomonidan musodara etilib, muharriri qamoqqa olindi”, deb yozgan edi.

¹ Абдуазизова Н.А. Миллий журналистика тарихи (Генезис ва эволюция). Биринчи жилд, – Т.: Шарқ, 2008. – Б. 96.

² Абдулла Авлоний. Бурунги ўзбек вақтли матбуотининг тарихи // Туркистон. 1989. 18 июль.

T.Ernazarov “Turkistonda vaqtli matbuot” asarida “Taraqqiy” da bosilgan materiallarning umumiy mazmuni, gazeta muharririning “Russkiy Turkestan” gazetasi bilan hamkorligi, rus amaldorlari, ruhoniylar va boylarning gazetaga salbiy munosabati haqida fikrlar bildirgan.

“Taraqqiy” haqida yaratilgan tadqiqot ishlaridan yana biri Solih Qosimovning “Guliston” jurnalining 1979 yil 9-10 sonlarida e`lon qilingan “Kurash sahifalari” maqolasidir. Shuningdek, A. Jalolov va X. O`zganboevlarning “O`zbek ma`rifatparvarlik adabiyotining taraqqiyotida vaqtli matbuotning o`rni” kitobida va “O`zbek tili va adabiyoti” jurnalining 1986 yil 3-sonidagi “Taraqqiy” va adabiy hayot maqolasida ham “Taraqqiy” gazetasi faoliyati tahlil qilinadi. Bu tadqiqot va izlanishlarda ham vaqtli matbuotning adabiyot rivojiga qo`shgan hissasi ta`kidlanib, ijtimoiy-siyosiy xayotga matbuotning ta`siri masalalari o`z bahosini olgan.

“Taraqqiy” ilk sonlaridanoq mahalliy xalq orasida erk, hurriyat, istiqlol g`oyalarini tarqatishga intildi. Gazetaning 1-sonidagi “Toshkand, 14 iyun” sarlavhali tahririyat maqolasida Rusiyada inqilobiy kurashlar, qon to`kishlar, jon fido kilishlar tufayli 17 oktyabr` manifestiga erishilgani haqida fikr yuritilarkan, o`zbek va tatar xalqlari (umuman, musulmon qavmlari) inqilobiy harakatga faol katnashmayottanliklari alohida ta`kidlanadi.

Shunisi diqqatga loyiqki, “Taraqqiy” rus ma`murlarining mustabidlik siyosatini ro`y-rost fosh qilib tashlay olgan. Chunonchi, “musulmoncha bir kichkina risola bosdurmoqchi bo`lsak, – deb yozadi gazeta, sahifalar ortiqli, turtiqli buzulib, qo`limizga qaytur edi. Maktablar ochadigan bo`lsak, turli bahonalar bilan yopishar, madrasalarimizni “pechatlashub”, 2–3 tiyin masjid, madrasa vaqflaridan ham ayrilur edik”¹.

Gazeta mustamlakachilarning kirdikorlarini xalqqa ochiq tasvirlab beradi, milliy zulmning, erksizlikning yurakni zirqiratadigan xo`rliklarini yorqin ko`rsatadi. “O`zlari tilagancha, yozadi gazeta, qo`y orasida bo`ri yurgandek bizga

¹ Пидаяев Т. Матбуот миллат чироғи. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 1999. – Б. 10.

dinimiz va Qur`oni sharifimizni haqorat etub, masjid, madrasalarimizning 3–4 tiyin vaqflaridan ayrilg`onlarimiz etmasa, butun dunyog`a haqorat qildurub missiyunerskiy gazetalarda bosdurub nashr qilurlar edi”.

“Taraqqiy” gazetasi rus ma`muriyatining qiyofasini ko`rsatish orqali Rossiyadagi davlat tuzumining yaramasligini ochib tashladi. Chunonchi, gazetaning 1906 yil 8 avgust sonidagi “Ma`murlar” sarlavhali maqolada har bir mamlakat hayotida ma`murlarning tutgan o`rni va asosiy vazifasi haqida fikr yuritilgan. Rusiyadagi ma`murlari nazarda tuttan holda yozarkan, gazeta fuqoralar uchun xizmat qilish o`rniga oddiy xalqni ezish, mol-mulkini o`zlashtirish yo`liga o`tdilar, deydi. “Jami ahloqi fosidani bular nashr etdilar. Dunyoni fasodiga bular sabab va bois bo`ldilar... Bir millatni ikkinchi millatga kaltak qilub, qon to`kmak hunarini asar etmak bularning ixtiro` qilg`on hunarlaridur. Zulm qilmoq, ilmg`a sad tortmoq, muxtalif millatlar orasiga adovat solmoq kabi asbobi madaniyat bo`lg`on hunarlarga ham mahorat kasb etdilar”¹.

Bu tavsif Rus amaldorlarining chinakam qiyofasini ochib tashlaydi.

“Taraqqiy” ruslarga qarshi har qanday harakatni qizg`in quvvatlagandi. Uning 8 va 9–sonlarida Turkiston bol’sheviklarining namoyandasi V. Morozovning maqolasi ham bosilgan. Ammo “Taraqqiy” bol’sheviklar mafkurasidan ko`ra kengroq va boyroq maslakni ilgari surdi. Bular uning yozishicha, quyidagilar: “muqtaziy hol va zamondir”, ya`ni zamonasining va muayyan holatning zaruriy, talab etilganlarini yozishdir. Buni gazeta shunday izohlaydi: “Gazetamiz: “Taraqqiy” nominda o`lub, bora–bora jismi ham ismig`a muvofiq o`lub millatimizni “keyin” qolmog`iga jaholati va g`aflati oliyda o`lub boshqa millatlardan kam darajada qolmog`ig`a aslo rozi emasdirmiz. Baqadari imkon millati islomni oliy darajada o`lmog`ig`a va millati islomdagi tijorat, kasb–korning ortmog`iga yo`l izlab ijti hod qilur. Jaholat har millatni keyin qoldirib atrofig`a qorongulik keltirmog`i xar kimga ma`lumdir. Binoan alayha gazetamizning najotimizg`a, diniyo va oxiratda mas`ud o`lmoqimizg`a yolg`uz ilm bobidur,

¹ Ўша жойда, – Б. 10.

demak, eng birinchi vazifasidir. Alhamdullila sam alhamdulilla aholi viloyatimizning bu kunlarda uyqularindin uyg'onub emoqg'a g'izo, icharg'a suv izlagandek har tarafdin oxista-oxista kelgan ovozlarga quloq solub turuvlari: oralaridan bir odamning "zamonamiz foyda va istifoda zamonidir; millat manfaatina xizmat etmak zamon ba zamon, tortkan mehnat, ko'rgan zahmatlaridan qutilaturg'on zamon bu zamon. Din va dunyomiz uchun g'ayrat qilub ibrat oladurg'on zamon –bu zamon. Har kim o'z xissasin olub turg'on muddatda og'iz ochub qoladurg'on zamon emas", deb bergan ovozlارimizni eshitgudek ko'rinurlar"¹.

Mazkur parchada gazetaning asl maslagi ifoda qilingan. Unda ta'kidlanganidek, "Taraqqiy" butun o'zbek millatining jaholatdan qutilishi, taraqqiy qilishi, erki va istiqloli uchun kurashdi. Bu maslak keyinroq jadidlar g'oyasi, harakat esa jadidchilik deb ataldi.

Turkistonda asrimizning ikkinchi o'n yilligida nashr qilingan "Samarqand" (1913 y.), "Sadoi Turkiston" (Toshkent, 1914–1915 yy.), "Sadoi Farg'ona" (1914-1915 yy.) gazetalari, "Oyina" (1913-1915 yy.) jurnalining ham matbuotimiz tarixidagi o'rni salmoqlidir. Yurt ravnaqi, millat kamoloti manfaatlarini faoliyat mezoni qilib olgan bu nashrlar Turkiston istiqloli va istiqbolining ma'rifiy-ma'naviy negiziga aloqador muammolarga katta e'tibor berganliklari bilan ajralib turadi. Jadidlar milliy taraqqiyot taqdirini ma'naviy barkamol insonlar hal qilishini chuqur anglagan edilar. Yuqorida nomlari zikr etilgan nashrlarda insonlarni ijtimoiy hamjihatlikka, adolatga, insofga va diyonatga chorlovchi, jaholat, bid'at, loqaydlik, mutaassiblik, axloqsizlikni va turmushdagi boshqa salbiy hodisalarni keskin fosh qiluvchi talaygina adabiy-jurnalistik asarlar chop etilgan bo'lib, ularda milliy taraqqiyotni ta'minlashga qodir bo'lgan ma'rifatli insonlarni tarbiyalash maqsadi ko'zlangan.

Jadid gazetalarining faoliyati mashaqqatli kechdi. Rus ma'muriyati ularni qattiq iskanjaga oldi. Toshkentda chiqqan "Taraqqiy" (1906 y.). "Xurshid (1906

¹ Пидаяев Т., Дўстқораяев Б. "Тарақкий" газетаси // Халқ сўзи. 1993. 11 июнь.

y.), "Shuhrat" (1907 y.), "Osiyo" (1908 y.) gazetalari Turkistondagi rus ma'muriyati tomonidan yopib qo'yilgan bo'lsa, boshqa milliy nashrlar aksariy hollarda moliyaviy qiyinchiliklar tufayli chiqishdan to'xtagan.

1917 yil fevralidagi ikkinchi rus inqilobidan so'ng Turkistonda o'lka hayotini demokratik asosda yangilash talabi bilan chiqqan qator yangi milliy davriy nashrlar paydo bo'ldi. Milliy harakatni avj oldirishda, o'zbek xalqining ixtimoiy-siyosiy faolligini milliy istiqlol uchun kurashga yo'naltirishda shu yili tashkil bo'lgan "Najot", "Turk eli", "Turon", "Ulug' Turkiston" (Toshkent), "Hurriyat" (Samarqand), "El bayrog'i" (Qo'qon) gazetalari va "Yurt" (Qo'qon), "Chayon" jurnallarining xizmati sezilarli bo'ldi¹. Mazkur nashrlar asosan Turkistondagi jadidchilik xarakatining faol namoyandalari tashabbusi bilan yuzaga keldi va ularning ijodiy hamkorligida faoliyat ko'rsatdi. Chunonchi, "Najot" gazetasi faoliyatiga Munavvarqori Abdurashidxonov rahbarlik qilgan, "Turon" gazetasining tashkilotchisi Abdulla Avloniy bo'lgan. Samarqandda chiqqan "Xurshid" gazetasiga, jumladan, Abdurauf Fitrat va Hoji Muinlar muharrirlik qilganlar. Asrimiz boshidagi o'zbek publitsistikasining etakchi namoyandasi –Mahmudxo'ja Bexbudiyning "Hurriyat" gazetasida dolzarb ijtimoiy–siyosiy mavzulardagi talaygina maqolalari chop etilgan. Jadidlar asos solgan o'zbek milliy matbuoti o'z yo'lidagi g'ovlarga qaramay, milliy ong, milliy til, milliy adabiyot va jurnalistikani shakllantirishga barakali ta'sir ko'rsata oldi. Unga aksilinqilobiy matbuot tamg'asi bosildi.

Shuni alohida qayd etish joizki, sho'ro tuzumi davrida jadidchilik harakatining o'zbek xalqining ijtimoiy–siyosiy va madaniy xayotidagi ahamiyati tarixiy haqiqatga zid ravishda buzib talqin qilindi. Jadidchilik harakati milliy ozodlik harakati bilan chambarchas bog'liq ijtimoiy-siyosiy hodisa ekanligi inkor etildi.

¹ Мингноров А.Т. Туркистондаги миллий озодлик ҳаракати масалалари давр миллий матбуотида (1917 йил февраль – 1918 йил ўрталари) : Тарих фан.ном. ...дисс. – Т., 2000. – Б. 89.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, yurtimizda qaror topgan mustaqillik tufayli biz endilikda tarixiy merosimizni haqqoniy o'rganish va baholash imkoniga erishdik. Mustaqil O'zbekiston jumhuriyati Oliy Kengashi 1993 yilda "Taraqqiy" gazetasining 1-soni chiqqan 27 iyun' sanasini o'zbek jurnalistlarining kasb bayrami sifatida nishonlash to'g'risida mahsus qaror qabul qildi. Bu milliy matbuotimizning xalqimiz ravnaqidagi beqiyos xizmatiga berilgan munosib bahodir.

Hozirgi kunda tariximizga jadid matbuoti nomi bilan kirgan XX asr boshidagi o'zbek milliy matbuotining keng qamrovli, haqqoniy ilmiy tarixini yaratish ilmiy jamoatchilik oldida ko'ndalang turgan dolzarb vazifalardan biridir.

2.2. Mahalliy matbuotda Turkiston xalqlarining ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy ahvolining yoritilishi

XX asr boshlaridagi mahalliy milliy matbuotda Turkiston xalqlarining ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy hayoti muntazam yoritilib, omma e'tiborini bu voqea-hodisalarga jalb qilingan. Bu borada milliy ziyolilarimiz – jadidlar boshchiligida nashr qilingan gazeta va jurnallarning xizmatlari nihoyatda kattadir. Biz ularni bir qator mahalliy davriy nashrlar faoliyatida ko'rishimiz mumkin.

Misol uchun ilk milliy nashrlarimizdan "Taraqqiy" gazetasida e'lon qilingan ma'lumotlarni va bosilgan maqolalarni keltirib o'tishimiz mumkin.

Avvalo shuni aytish joizki gazetaning o'quvchilari juda keng miqyosda bo'lgan va ko'pchilikni tashkil qilgan. Gazetada "Toshkent 14 iyun", "Toshkent 22 iyun", "Toshkent 16 iyul", "Toshkent 9 avgust", "Mamlakat xabarlar", "Toshkent axbori", "Rossiya xabarlar", "Xorijiy xabarlar", "So'nggi xabarlar", "Doxiliya xabarlar", "Telegraf xabarlar" kabi ruknlar ostida berilgan maqolalar hanuzga qadar o'z qiymatini yo'qotgan emas.

"Taraqqiy"da bosilgan maqola va xabarlarning mazmuni asosan ilg'or g'oyalarni tarqatish, dini islomning mustamlakachilar tomonidan

kamsitilayotganiga qarshi kurashish, milliy mustaqillikka erishish yo'llarini izlashdan iborat bo'lgan. U umumiy o'qitishni milliy tilimiz va odatlarimizdan kelib chiqib olib borish kerakligini qattiq talab qilgan edi. Gazetaning ilk satrlaridanoq bu g'oyalar to'la o'z aksini topa borgan. Jumladan, uning birinchi soni va ilk sahifasi shunday satrlar bilan boshlangan: "Biz musulmonlarning hurriyatga haqlari bormu? Yo'q! Qarindoshlar, yuz marta yo'q!.. Bu ikki yil ichida hamma xalq tortishdi, kurashdi. Musulmonlar esa uxlashdi. Peterburg, Moskva va boshqa joylardagi tortishuvlar, mehnatkashlarning haq-huquq talashganini ko'rib bizning bolalarimiz bizni vahshiylar deb atarlar"¹.

Bu satrlar "Toshkent 14 iyun" sarlavhali maqoladan olindi. Mana shu satrlarning o'ziyoq, biz o'rganganchalik xalqni inqilob emas, balki milliy mustaqillik uchun kurashga chorlovchi bir da'vat ekanligi yaqqol ko'rinib turibdi.

"Duma hususida" deb nomlangan maqolada gazeta Rossiya hukumatining qoloq siyosati, yangi tuzilgan Dumaning xalq ahvolini yaxshilay olmasligi haqida fikr yuritadi. Rivojlanish va yuksalishda ilgarilab ketgan Frantsiya ham Angliyada davlatchilikning qonun va nizomlari mustahkamligi, ularning xalq hayotini yaxshilashga qaratilgan tomonlari yoritib beriladi: "... obodligi baland darajag'a etg'on mamlakatlarda (Fransiya, Angliya) mamlakatdorlikning - qonuni o'z ma'nig'a muvofiq bo'lmay qolg'on nizomlarini mansux qilmoq va yangi nizomlarni chiqarmoq yurtning sohib fuqarolarning ixtiyorida erur. YUrt bul xususda sohib ixtiyor va iqtidor bo'lib, o'z ichidan mo'tabar va inobatlik odamlarni saylab alarni parlament, ya'ni Dumag'a yuboradurki, ul saylangan deputatlar (vakillar) parlament, ya'ni Dumaning majlislarinda jami fuqarolarga manfaat etkuradurgon nizom va qoidalarni ittifoq bilan ixtiro aylab alarni mustahkam qilmoq uchun mamlakatning boshlig'iga manzur qilurlar. Mamlakat

¹ Абдуазизова Н.А. Миллий журналистика тарихи (Генезис ва эволюция). Биринчи жилд, – Т.: Шарқ, 2008. – Б. 139.

boshlig'iga joizdurki, ul qoidalar anga ma`qul bo'lmasa, alarni uch martag'acha rad qilg'ay"¹.

“Fel’eton” rukni ostida nashr etilgan Munavvar qori Abdurashidxonovning “Bizning jaholat – jahli murakkab” sarlavhali maqolasi o`sha davrda beqiyos ahamiyatga molik bo`lgan hodisa edi. Maqolada muallif qalamga olgan salbiy illatlar - maktab va madrasalarning qoloqligi, muallimlar zamonaviy ta`lim-tarbiya usullaridan bexabarliklari barobarida, bu usullarni egallab olishga intilmayotganidan qattiq tashvish tortadi. Shu bilan birga johil muallimning kaltagi zarbidan talabaning vafot etish holati yuz bergani, shunday holatda ham ta`lim-tarbiyani isloh qilish uchun hukumat jon kuydirmayotgani va kuydirmasligini isbotlab bergan. Bunday hollar esa millatning bosqinchilar asoratida qolib ketishiga zamin hozirlashini to`la asoslab bergan: “... har millatning maktab va madrasasi o`ldug'i kabi bizning maktab va madrasalarimiz, garchi benizom va beusul bo`lsa ham, yo`q demak darajada oz emasdur. Va lekin dunyog'a nima uchun kelgonini bilmay ilm va maorif-g'a aslo rag'bat qilmay jonidin shirin bolalarini ko`cha-bako`cha kezdurib bechora ma`sumni aziz umrini jaholat otashina yondiruvchi beahamiyat va bediyonat otalar ham oramizda oz emasdur. Ko`p dindoshlarimizni ko`rarmizki, o`z farzandlarini aslo maktabg'a bermay orqalaridan ergashtirib ruslar eshigida o`zlari kabi xizmatchilikg'a o`rg'atub, dunyo va oxiratni saodati o`lg'on ilm va maorifdin mahrum qilmoqdin hech bir ibo qilmaslar”².

Millatning ertasini o`ylab jon kuydirayotgan ziyolilarimizning barchasi bu jaholat millat asoratga tushishiga sharoit hozirlab berishini o`sha davridayok, anglab etib, bunday holga tushmaslik uchun qattiq kurash olib borganlar.

Munavvar qorining yuqoridagi maqolasida quyidagi parcha jaholat insonni, ayniqsa, bitta millatni qay darajaga tushirib qo`yish tasviri juda ham yuksak iqtidorning aks-sadosi, haqiqiy millatparvar xalqning nidosi edi: “... bu jaholat

¹ Пидаев Т., Дўстқораев Б. “Тарақкий” газетаси // Халқ сўзи. 1993. 11 июнь.

² Пидаев Т., Дўстқораев Б. “Тарақкий” газетаси // Халқ сўзи. 1993. 11 июнь.

natijasida o`zimiz erlik musulmonlardan o`ldug`imiz xolda musofir rus va yahudiylar eshigida mardikor va xizmatchi o`lduk. Va bu jaholat xohishidurki, millat foydasi uchun jonini qurbon qilmoqqa loyiq arslon kabi yigitlarimiz butun millatni o`ylaridan chiqarib iste`dod va g`ayratlarini choyxona va pivaxonalarig`a sarf etmakdadurlari”¹.

Maqola davomida Munavvar qori bu jaholatning aybdori kim, degan g`oyani ilgari suradi. Va aytadiki, bu jaholatning aybdori bolasini o`qitolmagan ota ham emas, chunki uning bolani o`qitash uchun iqtisodiy tomondan qurbi etmaydi. Buning aybdori maktab muallimlari va madrasa mudarrislari ham emas. Mazkur yurtida buning aybdori hukmronlikni o`z qo`liga kiritgan va mustamlakachilik tarixida deyarli uchramagan bir odat – millatni asoratga tushirish uchun uning milliy odatlari va milliy ma`naviyati, dini, tilini o`rganishni cheklab qo`yayotgan bosqinchilik tuzumi va shu tuzumning yurt, millatga keltirayotgan hamda keltirajak ofatlarini ko`ra bila turib o`zining halovatini o`ylagan sotqin va xoin maxalliy hukmdorlar edi. Albatta, yuqoridagi maqola mazmunidan buni aniq anglab etish qiyin emas.

Maqolada Munavvar qori 10–12 yoshli bolalar ilg`or yo`nalishda yozilgan yuqoridagi buyuk mutasavvuf allomalarimizning asarlarini o`qib olishlari mushkul ekanligini o`z mulohazalari bilan isbotlab beradi. Yosh avlodga bunday kitob o`qitish maorifning qoidasiga to`g`ri kelmasligi, ularning o`z yosh va iqtidorlariga yarasha dini islom ta`limoti va yangi fanlarni o`qitish shartligini asoslab beradi: “Ey vatandoshlar! Diqqat nazar ila boqing! Biz bolani maktabg`a bermakdan maqsad: harom, makruq, namoz va ro`za, haj o`z guvohlarini ham zaruriyat dunyoviyamiy o`lg`on ilm hisob, jo`g`rofiya, tarix, xususan, tarixi islom kabi foydalik ilmlarni bildurmoq o`lg`on holda johil

¹ Абдуазизова Н.А. Миллий журналистика тарихи (Генезис ва эволюция). Биринчи жилд, – Т.: Шарк, 2008. – Б. 140.

domlarni ta'limi falonni qoshi qaro, ko'zi qaro, yuzi oq, so'zi shirin deb bolalarni fasod axloqiga birinchi sabab o'ladurg'on manzuma kitoblar o'lur"¹.

Gazetaning 3-sonida e'lon qilingan "Toshkent 22 iyun" sarlavhali maqola ham hukumatning nomaqbul siyosati natijasida sodir bo'lgan rus-yapon urushi va buning oqibatida "lashkarni boqmoq", jang asboblari olmoq, mansabdor va amaldorlarga vazifa bermoq, lashkarni tegishli joylarga tezlik bilan etkazish uchun zarur bo'ladigan otash aravalarning yo'llarini barpo qilmoq va boshqa mablag'ni topishning eng oson yo'li xalqqa turli soliqlar solib undirib olish ekanligini tasvirlaydi. Xalqning og'ir va mashaqqatli mehnati evaziga bunyodga kelgan ozgina mablag'ni shu yo'l bilan undan tortib olib "va yana xalqni din va iymonga taallug'i bor afsonalar bilan battar ozg'urib itoat qafasida tutadurlar"².

Tarixdan ma'lumki, chor Rossiyasi bosqinchilari ingliz mustamlakachilari kabi o'z iqtisodiy va siyosiy mavqeini oshirish, mustamlakadagi mamlakat boyliklarini o'zlashtirish va odamlarni fikri bilangina cheklanmay, ular bosib olgan millatlarning ich-ichiga singib ketmoq, o'zini ular bilan o'sha erda teng huquqli voris qilib ko'rsatmoq hamda tub aholini butkul ruslashtirmoq siyosatini ham olib bordilarki, bu mahalliy xalqlar uchun eng tahlikali holat edi. Shuning uchun ham o'sha davrda hukumat amaldorlardan biri O'rta Osiyo aholisini huddi rus mujiklari kabi ichkilikbozlikka o'rgatish lozim, degan gapni aytib o'tgan.

"Taraqqiy" gazetasining "Toshkent axbori" sarlavhasi ostida berilgan maqolaga ko'ra, aholi o'rtasida ichkilikbozlik kuchayib ketgani va bu shubhasiz qandaydir maqsadlarni ko'zlab yo'lga qo'yilgan bir holat ekanligini, buning boshida juda katta kuch turganini to'la his qilamiz. "Bizni Toshkentda ichkulik va pivoxo'rlik chunon shoe' bo'ldiki, bosh bekatlarimizdan boshlab dumaxona

¹ Абдуазизова Н.А. Миллий журналистика тарихи (Генезис ва эволюция). Биринчи жилд, – Т.: Шарқ, 2008. – Б. 142.

² Абдуазизова Н.А. Миллий журналистика тарихи (Генезис ва эволюция). Биринчи жилд, – Т.: Шарқ, 2008. – Б. 141.

ulug'larig'acha choy o`rniga pivo iste`mol qilurlar. Na ulamolarimizdin va na xukumatlarimizdin bir kishi yo`qki, yigitlarimizni ichkulik ichmoqdin man qilsalar. Davlat Dumasig'a vakil saylamoq uchun aholi tarafidin ko`zlangan ulug' prelsedatellarimiz ichkulik ichib mast bo`lib aholi orasida beibo kezmakdalar. Ajabo! Buningday fasod axloq qanday noinsoflidurki, aholiga va nasihat qilib iymon yo`liga qaytarmak va qaytmag'onini urub so`kub tazyiq bermoq vazifalari o`lg'on ulug'larimiz o`zlarini obro`yini rus qizlari ila gostinitsa zollarida barbod etmakdalar. Alloxdan qo`rqib, xalqdan uyal-maslar"¹.

Bu lavhalar, darhaqiqat, millatni yo`ldan ozdirish, din va iymondan ayirish uchun ko`plab nayranglar qilinganini isbochlovchi bir dalildir.

Gazetaning 9-sonida "Toshkent, 19 iyul" sarlavhali maqola ham nohaqliklarga qarshi ko`tarilgan isyon, haq va huquq talab qilayotgan xalqning sadosi edi.

"Qozon shahrida" degan maqolada esa qora guruhlarining Qozon shahridagi yahudiy va musulmonlarga, hurriyat talab qiluvchilarga tazyiq qilgani, musulmonlar ularga qarshi kurashgani aytilgan.

Toshkentda ham shunday harakatlar yuz bermasligi uchun doimo itgifoq bo`lib turish kerak, deydi va qora guruh odamlariga shunday tavsif beradi: "dinda va so`zda, matbuotda va boshqa narsalarda hurriyat qiluvchi ravshan zamin va ziyolik zotlarga eng darajada dushmanliklari ila barobar Rossiya mamlakati faqat ruslar uchun va ham ruslardan boshqa umumxalqni nasoro bo`lmog'ini tilovchi va nasoro dinig'a da`vat qilg'uvchi missionerlarg'a jon va mollari ila quvvat berib bor musulmonlarni ham birinchi dushman kishilaridir".¹

Gazetaning shu sonida berilgan "Madrasalarga oid" sarlavhasi ostidagi maqolada ham katta hayotiy haqiqat yotadi. Unda xon va beklar zamonida ko`p e`zozlanib, diqqat-e`tiborda turgan madrasalar va maktablarniig bugungi ayanchli ahvoli o`z ifodasini topgan. Ularni isloh qilish vazifasi bo`lgan

¹ Абдуазизова Н.А. Миллий журналистика тарихи (Генезис ва эволюция). Биринчи жилд, – Т.: Шарк, 2008. – Б. 139.

hukumatdorlar, ulamo va qozilar bu yo`lda aslo jon koyitmayotganini, millatning taraqqiyotdan keyin ketishi ularni o`ylantirmayotgani yorqin lavhalarda tasvirlangan: “Toshkent madrasalarina kelganda mundog’i madrasa va shogirdlarning ahvolin kimlar isloh qilurlar!

Ulamolar bo`lsalar, qozilarning so`zlaridin o`tib bir ish qilolmasliklari uchun bul janoblardan isloh umid qilmoq to`qson yoshlik bir qari ajuzadan farzand umid etmak qabilidandir”¹.

Maqolada qozilarimizning ilm islohida bu qadar befarq qarayotganining sababi izoxlanar ekan, ularning mustamlakachi hukumat tomonidan tayinlangan mansabdorlarning buyrug’iga so`zsiz bo`ysunishi va shaxsiy manfaatlarini o`ylab o`z millatiga bu qadar og’ir savdo bo`lmish – jaholat va zulmni ravo ko`rayotganini aytib o`tilgan.

Gazetaning 16–sonida Rusiya Davlat Dumasiga taqdim etilgan aholini umumiy o`qitish uchun chiqarilgan qarorlar muhokamasiga bag’ishlangan “Umumiy o`qituv” maqolasi juda qimmatli ahamiyatga ega bo`lgan g’oyani ko`tarib chiqqan. Maqolada umumiy o`qitish har bir millatning o`z ona tilida bo`lishi lozimligini isbotlab berilgan. Ministrlar ishlab chiqqan bu qaror loyihasi muvaqqat deb jimgina kuzatib turishning oqibati yaxshi bo`lmasligini sezgan gazeta tahririyati xalq bu ishda yakdil kurashmog’i zarurligini aytib o`tadi. Millat uchun eng mushkul masala til masalasi bo`lib qolganini, uni hal qilishda Duma odillik bilan ish yuritishi zarurligini ta`kidlash bilan birga har bir millat o`z ona tilida ish yuritishga haqli ekanligini, bu huquqni qattiq turib ximoya qilmoq lozimligini ta`kidlaydi. Quyidagi satrlarni mana shu fikrlarning isboti sifatida keltiramiz: “Har qonumg’a bani duma eg’ilg’och dumag’a taqdim qilmoq lozim ham bu qonunlarni olishtirmoqqa g’amomi biturmoqqa dumaning komil haqqi bordir ham shuning uchun ministrarning har bir chiqorg’on yangi ishlari

¹ Абдуазизова Н.А. Миллий журналистика тарихи (Генезис ва эволюция). Биринчи жилд, – Т.: Шарк, 2008. – Б. 143.

muvaqqatdur. Lekin muvaqqat deb aytib musulmon tek qarab tururg'a bo'lmas, balki bilaks muvaqqatlik birlan foydalanib ilgariroq muhokama etib umumiy o'quv, umumiy ta'lim ibtidoiy masalalar xususida bir turlik qaror bermoq va bir turlik filon qilmoq zarur va ham bu xususida qandoq qonun kerakligini ko'rsatmoq lozimdir. Umumiy ta'lim ibtidoiy masalasida bizning millat uchun eng mushkul masala til masalasi. Bu masala bo'lmasa ta'lim haqida umumiy Rusiya uchun chiqolilg'on qonun (albatta, bu qonunni duma chiqarmog'i sharti bo'lg'onda, bizning musulmonlar uchun yoror erdi)"¹.

Biz yuqoridagi singari manbalarni o'qib-o'rganish jarayonida millatimizni asoratga tushirish u darajada oson kechmaganini, bu ish juda qattiq zulm va zarba natijasida amalga oshirilganini bugun to'la anglab etmoqdamiz.

Gazetada "Xorijiya xabarlar", "Mamlakat xabarlar", "Rusiya xabarlar", "Toshkent axbori" singari ruknlar ostida juda ko'plab xabarlar berib borilgan. Ushbu xabarlarda musulmonlar mamlakatda boshlangan dahshatli voqealar — qonli urushlar, ularga askarlar yig'ish natijasida o'z yerlarini tark etib Turkiyaga hijrat qilayotgani haqida yozilar ekan, bu bilan g'ayridinlar musulmonlarga juda qattiq jabr-sitam o'tkazayotgani ta'kidlanadi. Shuningdek, o'sha davrda nashr qilingan mahalliy gazetalar xabarlarida inqilob haqidagi voqealar emas, balki milliy mustaqillikka intilayotgan musulmon dunyosidagi voqealar ko'proq o'z aksini topgan. Ularda xabarning ahamiyati haqida yo ijobiy, yo salbiy tomoniga qarab tavsif beriladi. Masalan, Turkiya mamlakatida bo'lib o'tgan voqealardan xabar berilarkan, u joyda Sultonning maxfiy josuslik xizmati boshlig'i vafot etgach, Sulton bergan oqchalarga qanoatlanmay, uning o'g'li otasidan qolgan xujjatlarni olib chet elga qochib ketgani va o'sha xujjatlar evaziga Evropadan ko'proq mablag' umidida bo'lgani aytiladi. Gazetalar bu xabarni shunchaki keltirib o'tmaydi.

¹ Пидяев Т., Дўстқораев Б. "Тараққий" газетаси // Халқ сўзи. 1993. 11 июнь.

Unga nisbatan o'z qarashlarini bayon qilib, mol-dunyo ilinjidagi bu xoinlik eng jirkanch holat ekanligini ta'kidlaydi.

Shuningdek mahalliy gazetalarda reklama va e'lonlar ham berib borilgan. Asosan savdo kompaniyalari va magazinlar faoliyati reklama qilingan. Masalan, "Taraqqiy" gazetasida Muhammadsharif Musin kompaniyasining do'konlari joylashgan erlar, savdoga chiqariladigan mollar haqida ma'lumot berilgan. Bu davrda gazetalarda obunadan tushgan mablag'dan tashqari, reklama va e'lonlardan ham daromad olib turgan.

1912 yilda kelib ma'rifatarparvarlik harakati butun o'lkaga keng yoyilgan, madaniyat, maorif orqali milliy ozodlikka chiqish uchun kurash Buxoro, Samarqand va Quqon shaharlarida ochiq boshlanib ketgan edi. 1913 yilga kelib esa bu shaharlarda gazeta-jurnal chiqarish orqali tashviqot va targ'ibot ishlar olib borish imkoniyati tug'ildi. Turkistonda ham ishchilar harakati jonlanib qoldi, hukumatga muxolifatdagi matbuot nashrlari yana paydo bo'la boshladi. Bu davrda "Xurshid", "Shuxrat", "Tujjor", "Osiyo", "Samarqand", "Sadoi Turkiston", "Sadoi Farg'ona", keyinchalik, "Najot", "Farg'ona sahifasi", "Sho'roi islom", "Turon", "Hurriyat", "Kengash", "El bayrog'i", "Turk eli", "Farg'ona nidosi" kabi bir nechta mahalliy nashrlar nashr qilindi.

Xulosa o'rnida biz bu davrda ijtimoiy-siyosiy hayot jarayoni o'zgarishini Rossiyada xam, Turkistonda xam bir xil, bir yo'nalishda bo'lgan deya olmaymiz. Masalan, Rossiyada rasmiy hokimiyatga qarshi umumiy bir kuch (bol'sheviklar, men'sheviklar va xokazolar) mavjud bo'lgan bo'lsa, Turkistonda bu ijtimoiy-siyosiy kuch ikki muhim yo'nalishda mavjud edi.

1. Turkistonda ishchilar harakatini tashkil etgan va unga raxbarlik qilgan bol'sheviklar harakati.

2. O'lkaning afkor xalq ommasini madaniyatli, o'qimishli qilish yo'li bilan tutqunlikdan, zulmdan ozod etish, mustaqil mamlakat tuzish bilan bog'liq bo'lgan taraqqiyparvarlar harakati mavjud edi.

Turkiston matbuoti tarixini o`rganganda ana shu holatlarni e`tiborga olish zarur.

III BOB. TURKISTONDA SOVET MATBUOTINING VUJUDGA KELISHI, AN`ANA VA MUNOSABATLAR

3.1. Turkiston matbuoti rivojlanishida mahalliy ziyolilar va yevropaliklarning o`rni

Turkiston vaqtlı matbuotining rivojlanishida mahalliy ziyolilarimizning o`rni nihoyatda kattadir. Biz bularni quyidagi ko`plab milliy ziyolilarimizning ish faoliyatlarida ko`rib o`tishimiz mumkin. Ulardan biri Munavvar qori Abdurashidxonovdir. Munavvar qori Abdurashidxonov 1878 yil Toshkentning Shayxontohur dahasi Darxon mahallasida tavallud topgan. Toshkentdagi Yunusxon madrasasida, so`ngra Buxoroda tahsil olgan. Munavvar qori Turkiston o`lkasida yangi usul maktabini birinchi bo`lib 1901 yilida o`z hovlisida, keyinchalik Toshkentning turli dahalarida ochishga muvaffaq bo`ldi. Bu maktablar uchun “Adibi avval” va “Adibi soniy” deb nomlangan darsliklar yaratdi. “Taraqqiy”dan keyin milliy matbuotimiz namunasi bo`lgan “Xurshid” gazetasini nashr qildi. “Najot”, “Kengash”, “Osiyo”, “Hurriyat”, “Turon” gazetalarida bosh muharrir, “Sadoi Turkiston”da esa bo`lim muharriri bo`lib xizmat qilgan. 1931 yilda kommunizm qatag`onining qurboni bo`lgan. Masalan, “Xurshid” gazetasining nashr qilinishida Munavvar qori Abdurashidxonov xizmatlari nihoyatda kattadir. Yaqingacha biz “Xurshid” gazetasining birinchi soni qachon bosilgani to`g`risida ma`lumotga ega emas edik. endilikda buni aniqlash mumkin bo`ldi. “Xurshid” gazetasining birinchi soni “Turkiston viloyatining gazetı” ro`znomasida chop etilgan (1906 yil, 21 sentyabr, 47-son) “Po povodu gazeta “Xurshid” v Tashkente” sarlavhali

maqoladan ayon bo'lishicha, 1906 yil 6 sentyabrda chiqqan¹. Shu maqolada ko'rsatilshicha, birinchi son to'rt sahifadan iborat bo'lgan. Gazetaning Alisher Navoiy nomidagi respublika xalq kutubxonasining nodir nashrlar bo'limida "Xurshid"ning 2- va 3-sonlarigina saqlanib qolgan. 2-son 14 sentyabr' chorshanba kuni, 3-son esa 21 sentyabr chorshanba kuni chop etilgan. 2-sonining birinchi sahifasida gazetaning chiqish muddati va mazmun yo'nalishini anglatuvchi quyidagi so'zlar yozilgan: "Hozir haftada bir marta, tezdan 2-3 bora chiqadurg'on ilmiy, adabiy, siyosiy, maishiy turkcha jaridadur"². Mazkur sonlarning har ikkisi ham tosh bosma usuli bilan chop etilgan, Ziyo Saidning ko'rsatishicha, "Xurshid"ning to'rtta soni tosh bosmada, qolgan sonlari mix bosmada chiqarilgan. 2-sonda gazeta chop etilgan bosmaxona, gazetaning sotilish narxi, taxririya manzilgoxi, muharrir va noshirning ism-sharifi haqida ma'lumotlar keltirilgan. Gazeta Toshkentda, V.M. Il'inga qarashli xususiy tipolitografiya chop etilgan. Gazeta muharriri va noshiri Munavvarxon Abdurashidxonov deb ko'rsatilgan. "Xurshid" gazetasining mavjud sonlari uning sahifalarida yoritilgan, ko'llanilgan janrlarning xilma-xilligidan dalolat beradi.

Anashunday milliy ziyolilarimizdan yana biri bu Mahmudxo'ja Behbudiydir. Mahmudxo'ja Behbudiy 1875 yil 19 yanvarda Samarqandda ruhoniylar oilasida tug'ilgan. Tog'asi Muhammad Siddiq yordamida xat-savod chiqargan. eski maktab-madrasada o'qiydi. Arab tilini o'rganadi. Qozixonalarda mirzalik, muftilik qiladi. 1902 yil Makkaga borib, hoji bo'lib qaytadi. Qozon, Ufa shaharlarida, Saudiya Arabistoni, Misr, Turkiya mamlakatlarida bo'ladi. Jadidchilik harakatining asoschisi Ismoilbek Gaspirali bilan bir necha marta uchrashadi, ma'rifatparvarlik, millat, madaniyat to'g'risida suhbatlar qiladi. U o'z davrining yirik islomshunosi bo'lish bilan birga, siyosatshunoslikda ham ko'zga ko'ringan namoyanda bo'lgan. Vaqtli matbuot sahifalarida zamonasining dolzarb mavzulariga

¹ Пидяев Т. Матбуот миллат чироғи. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 1999. – Б. 14.

² Зиё Саид. Ўзбек вақтли матбуоти тарихига материаллар. Танланган асарлар. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1974. – Б. 32.

bag'ishlangan ijtimoiy–siyosiy, tarixiy, adabiy maqolalari bilan faol ishtirok etgan. Mahmudxo`ja Behbudiy yangi usuldagi maktablarning ilk targ'ibotchisi va asoschilaridan biri bo`lish bilan birga, ana shu maktablar uchun darsliklar yaratgan yirik ma`rifatparvar arbobdir.

Mahmudxo`ja Behbudiy 1919 yilning bahorida Qarshi shahrida qatl etilgan. Behbudiy Turkistonda bir nechta gazeta va jurnallar chop etilishiga ko`maklashdi va boshchilik qildi. Ana shunday nashrlardan biri “Samarqand” gazetasidir. “Samarqand” gazetasi Samarqand taraqqiyparvar ma`rifatchilarining to`ng`ich gazetasi bo`lib, u 1913 yil aprel` oyida Mahmudxo`ja Behbudiyning mas`ul muharrirligi ostida chiqa boshlagan. Gazeta haftada 2 marta 2 sahifada (7-, 8-sonidan so`ng 4 betli) chiqqan. Shuningdek, u 400–600 nusxadan iborat bo`lgan. Tili sof o`zbekcha bo`lmagan, har bir sonida tojikcha she`r na maqolalar ham bosilib turgan. Biroq, “Samarqand” gazetasi moddiy tomondan qiynalib, 45-sonida to`xtashga majbur bo`lgan. Mirzohid Mirvohidov (Quqondan), Akobir Shomansurov (Samarqanddan), ikki yuz mushtariy 500 so`m iona to`plab, yana nashr qilinishini so`rab muharrirga telegramma bergan bo`lsalar ham, gazetani qayta nashr etish mumkin bo`lmagan¹.

“Samarqand” gazetasining bosilish jarayonida unga 2 marta ruxsat olingan bo`lib, birinchisi 1913 yil 10 aprelda beriladi va shundan so`ng gazeta chiqa boshlaydi. Shu bilan birga, Behbudiy negadir 1913 yil 23 may kuni Samarqand viloyati harbiy gubernatoridan “Yangi Samarqand” (“Samarqandi nav” – “Noviy Samarkand”)² nomli gazeta chiqarishga ruxsat berishini so`rab yana ariza yozadi. Bu haqda Avsharovaning “Russkaya periodicheskaya pechat` v Turkestane (1870–1917)” kitobida shunday deyiladi: “Mahmudxo`ja Behbudiy nashr etgan bu gazeta avval “Samarqand”, bir necha soni chiqqach esa –26-, 27-sonlaridan so`ng “Noviy Samarkand” nomi bilan chiqdi. Bu vaqtinchalik

¹ Абдуазизова Н.А. Миллий журналистика тарихи (Генезис ва эволюция). Биринчи жилд, – Т.: Шарқ, 2008. – Б. 148.

² Зиё Саид. Ўзбек вақтли матбуоти тарихига материаллар. Танланган асарлар. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1974. – Б.42.

o`zgarish gazetadan axborot olishda har xillikka olib keldi. 28-sonidan boshlab esa u yana o`z nomiga qaytdi”¹.

Alisher Navoiy nomidagi O`zbekiston Respublikasi Davlat kutubxonasining “Nodir nashrlar” bo`limida “Samarqand” gazetasi taxlamlari ichida “Yangi Samarqand” gazetasining 2 ta soni ham bor (rus tilida). Demak, birinchi arizada gazetani ikki tilda (o`zbekcha va tojikcha), keyingi arizada rus tilida ham chiqarish ko`rsatilgan. ehtimolki, rus tilida ham chiqarish tavsiya etilgan. “Samarqand” boshiga avvalgi jadid gazetalar (“Taraqqiy”, “Shuhrat”, “Xurshid”)ning kuni tushmadi. Behbudiy “Samarqand”da butun Turkiston ziyolilari faol ishtirok etishlarini istadi va gazetaning ilk sonida yozuvchilarga murojaat qildiki, bu murojaat uning oxirgi sonigacha birinchi sahifadan tushmadi: “Islomiyaning saodati va solihiga musulmonlarni madaniyat va fununi zamonadan naflanmoqlari uchun yozilgan mahalliy turkiy va forsiy tillarda maqola va ash`or qabul bulib, ammo jaridaga yozilishi idora ixtiyoridadir”².

Bu murojaat gazetaning deyarli har sonida berilishiga qaramasdan, joylardan maqola va xabarlar ko`p kelmaydi.

Behbudiy muharrirlik faoliyatining diqqatga sazovor tomoni yana shundaki, u gazeta-jurnalda biron-bir nashrdan ko`chirib yo tarjima qilib material bersa, uning ostida albatta “Idora” yoki “Samarqand” imzosi bilan o`sha material, maqola, sharhga izoh beradi.

Milliy ziyolilarimizdan yana biri Ubaydullaxo`ja Asadullaxo`jaevdir.

Ubaydullaxo`ja Asadullaxo`jaev – Toshkentda, eski shaharning “Qoryog`di” mahallasida bog`bon Asadulla maxsum (maxdum) oilasida 1880 yilda dunyoga kelgan. Ubaydullaxo`ja rus-tuzem maktabini bitirgach, kelishtiruvchi sud`ya idorasida tilmoch sifatida o`z faoliyatini boshlagan. Uning uquvi, aql-idroki va bilimga chanqoqligi sud`ya e`tiborini o`ziga jalb etdi. Saratov shahriga jo`nashga

¹ Абдуазизова Н.А. Ўзбекистонда ижтимоий–сиёсий, адабий–бадний журналлар ва уларнинг тарихий–тадрижий таснифи масалалари (XIX аср охири – XX аср бошлари): Тарих фан.докт. ... дисс.– Т., 1997. – Б. 55.

² Зиё Саид. Ўзбек вақтли матбуоти тарихига материаллар. Танланган асарлар. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1974. – Б. 43.

to'g'ri kelganda Ubaydullani ham o'zi bilan olib ketib, unga ustoz bo'lishining sababi ham shu edi. Saratovda Ubaydullaxo'ja adliya bo'yicha mutaxassislikni o'rganib, ham nazariy, xam amaliy bilimlarni egalladi. O'sha yillarda u rus inqilobiy g'oyalariga qiziqib, eserlar bilan yaqinlashdi. Ubaydullaxo'ja 1909 yilda Lev Tolstoyga xat yozgani va uning ta'limoti haqida o'z fikrlarini bildirgani diqqatga loyiq. Buyuk adib yosh o'zbek yigiti maktubiga javob yozib, Saratovga yo'llagani ham Ubaydullaning aql-zakovati ulug' alloma e'tiborini jalb qilganidan dalolat beradi¹. U sotsial-demokrat, eserlar dasturi bilan tanishdi va o'z dunyoqarashini shakllantirishda ular tajribasidan foydalandi.

Saratovlik eserlar tavsiyasi bilan Ubaydullani eser, Toshkent okrug sudi ishonchli vakili (davlat xizmatidagi advokat) Ivan Charkovskiy o'z idorasiga ishga oldi. Oliy ma'lumotli Ubaydulla qisqa muddat ichida mustaqil ravishda advokatlik ishini yurita boshladi. Biyron ruscha nutqi, adliya ishining nozik nuqtadoni, Rossiya imperiyasi qonunlari majmuasining bilimdoni sifatida mijozlari ishini muvaffaqiyat bilan yakunlagani, bir necha katta sud jarayonida g'alaba qozongani unga obro' – e'tibor keltirdi.

Rossiya maxfiy xizmati – TRMB boshlig'i polkovnik M.Volkov uni 1913 yildan o'z hisobiga olib, muntazam kuzatuvda saqlagani sababini shunday izoqlagan: “Ubaydulla Asadullaxo'jaev Toshkent sartlaridan. Xususiy ishonchli vakil. Xo'jaev Saratovdan Toshkentga qaytib, qisman advokatlik va qisman tashkilotchilik qila boshlagan. 1913 yildan TRMB ga e'tiqodli panisломchi sifatida ma'lum. U “Umid” deb atalgan ilg'or musulmon guruhiga etakchilik qila boshlagan”².

Ubaydullaxo'ja do'sti Munavvar qori, Abdulla Avloniy, Ilhomjon Inog'omov, Komilbek Norbekov, To'lagan Xo'jamyorov (Tavallo), Muhammad Poshshaxo'jaev, Toshpo'lat Norbo'tabekov va boshqalar bilan birgalikda “Turon” jamiyatini tashkil qildi. Ubaydullaxo'ja 1914 yilda “Sadoi Turkiston” gazetasini

¹ Мухаммадхонов Х. “Убайдуллохўжа Асадуллохўжа ким эди?” // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. – Т., 1991. – №5. – Б. 12.

² Ўзбекистон Республикаси Марказий Давлат архиви (ЎЗР МДА), ТФ–461, 1–рўйхат, 1968–иш, 13–варақ.

nashr qilishga muvaffaq bo'ldi. "Sadoi Turkiston" gazetasining Turkiston ijtimoiy hayotida tutgan o'rnini, mazmuni va g'oyaviy yo'nalishi, rubrikalari, tiraji va tarqalishi, mualliflari va publitsistlari, shuningdek, o'zbek milliy matbuoti tarixida umummilliy matbuot nashri martabasiga ko'tarila olishi, yuksak poligrafik saviyada chop etilishi, ommabop nashr sifatida shu davr milliy nashrlari safida eng oldingi o'rinni egallashi uning beqiyos tarixii faoliyatidan dalolat beradi. "Sadoi Turkiston" gazetasi xususida fikr yuritishdan avval bu haqda ko'plab adiblar, adabiyotshunos olimlar o'z tadqiqotlarida yozib qoldirishgani aytib o'tishni joiz. Masalan, O.Sharafiddinov. I.G'afurov, SH.Turdiyev, N.Karimov, B.Do'stqoraev, M.Olimov, U.Dolimov, Z.Eshonova, T.Pidaev, S.Halimova va boshqalar gaztaning ko'pqirrali faoliyatini tahlil qilishgan va manba sifatida unga katta baho berishgan. A.Jalolov va H.O'zganboev "O'zbek ma'rifatparvarlik adabiyotining garaqqiyotida vaqtili matbuotning o'rnini" nomli kitoblarida "Sadoi Turkiston" gaztasi va "ma'rifat" masalasini yoritishgan.

"Sadoi Turkiston" 1914 yil 1 apreldan Toshkentda chiqa boshlagan. Gazeta nomining ostida "Hozirda ikki chiqadigan adabiy, iqtisodiy, fanniy va maishiy turkcha jaridadur" deb yozib qo'yilgan¹. Noshiri va muharriri mashhur advokat Ubaydullaxo'ja Asadullaxo'jaev bo'lgan.

"Sadoi Turkiston" ning muharrirlaridan biri, otashin fikrli shoir Abdulla Ashtoniyy gazetani ham, uning o'quvchilarini ham 1-sonda shunday dsb qutlagan edi:

*Maslaki betarif, taraqqiy yo'li,
Qayumin ilm uchun tutibdir qo'li,
Sarf etar qancha bo'lsa, bor puli,
Advokatlar mudiri mas'uli.
Chiqdi boshab "Sadoi Turkiston",*

¹ Зиё Саид. Ўзбек вақтли матбуоти тарихига материаллар. Танланган асарлар. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1974. – Б. 48.

O`qingiz shovq birla, ey do`ston!¹

Garchi bunda Abdulla Avloniy gazetaning yo`lini “betaraf” deb belgilayotgan bo`lsa ham, aslida u millat sha`ni, millat manfaati uchun kurashar, bunday kurashda esa betaraflik nisbiy bir tarzdagina bo`lishi mumkin. ehtimol, bu betaraflik rus siyosatiga qarshi kurashmaslikni nazarda tutar, unda bu to`g`ri va u harbiy nazorat tazyiqiga uchramaslik uchungina qilingandir. Gazeta asosiy e`tibori bilan milliy uyg`onish g`oyasini ilgari surdi. U tez orada publitsistik yo`nalishi ancha o`tkir gazetaga aylandi. Uning atrofiga o`z davrining ilg`or fikrlovchi barcha eiyolilari yig`ilib keldilar. Unda Munavvar qori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy (Indamas), To`lagan Xo`jamyorov (Tavallo), Saidnosir Mirjalilov (turkistonlik), Hamza Hakimzoda, Homid Said, Abdulhamid Sulaymon (Cho`lpon), Mo`minjon Muqammadjonov, Abdulla erg`oziev (bu kishi gazetaga kam yozgan, lekin gazeta rivoji uchun juda qattiq kurashgan), Nushiravon Yovushev, Siddiqiy, Lutfulla Olimov, mulla Saidahmad Vasliy, Fuzail Joiboev, Muhammadjon (mudarris), Badriddin A`lamiy, Hoji Muin, Shukur Rahimiy va boshqalar doimiy ravishda qatnashganlar. Gazetaning jami 66 ta soni chiqqan. So`ng moddiy tanglik tufayli yopilib qoladi. Uning noshiri Ubaydullaxo`ja Asadullaxo`jaev teatr truppasi tuzib, butun Farg`ona vodiysini aylanib chiqadi, lekin undan tushgan daromad ham gazetani qayta chiqarishga etarli bo`lmaydi.

Gazeta tili boshqa gazetalar tiliga qaraganda soddaroq, texnik bezagi ham durust bo`lgan. Tiraji noma`lum. Yaxshi qog`ozga bosilgan.

Gazeta noshiri va muharrirlari liberal burjuaziya tomonidan nashr etilgan “Vaqt” gazetasi hamda “Sho`ro” jurnali faoliyatidan yaxshi xabardor bo`lishgan, ularni olib, o`qib turishgan. Shu bois ma`lum darajada “Sadoi Turkiston” ham ularning yo`lidan borishga harakat qilgan. Ulardan maqolalar va xabarlar ko`chirib bosilgan. Misr, Hindiston, Arabiston, Turkiya va boshqa erlardagi

¹ Абдуазизова Н.А. Миллий журналистика тарихи (Генезис ва эволюция). Биринчи жилд, – Т.:Шарқ, 2008. – Б. 170.

musulmonlar ahvolidan xabarlar berib turilgan. Millatdan ximmat ahllari va ziyolilarni ko`paytirishga ko`p harakat qilingan. “Sadoi Turkiston” milliy matbuot va yangi usuldagi maktab yaratishga hissa ko`shishni o`zining asosiy maqsadlaridan biri deb qaradi. Shu bois har bir sonida muayyan tarzda bu masalalarga daxldor chiqishlar qilib turdi.

Gazetaning mavzular doirasi ancha keng edi. U barcha hayotiy masalalarni ko`tarar va ularga ma`rifiy nuqtai nazardan qarar, yondoshar va baho berardi. “Sadoi Turkiston” yangi usuldagi maktablar ochish bilangina ko`p narsaga erishib bo`lmasligini yaxshi tushungan, shu bois islohotlar doirasini yanada kengaytirish va ayniqsa, xalq maishiy turmushiga chuqurrok, kirib borishga bel bog`lagan.

“Sadoi Turkiston” gazetasi o`zbek matbuotida o`ziga munosib iz qoldirdi. Bu gazeta 66 nomer chiqib moddiy ahvolining tangligidan yotib qoldi. Xuddi shunday fikrni Abdulla Avloniy ham ta`kidlaydi. Biroq Cho`lpon bu haqda “80-no`merga qadar davom etib, moddiy jihatdan siqilaroq yopildi”, deb yozadi¹.

Gazeta Turkistonda milliy nashriyot shirkatlarini tashkil etish, noshirlik sohasida mahalliy aholidan mutaxassislar tayyorlash, homiylar va o`tkir qalam sohiblarini matbuot ishlariga jalb qilish, aholi o`rtasida targ`ibot, tashviqot ishlarini yo`lga qo`yishni amalga oshirishga munosib hissa qo`shdi.

Yana bir taraqqiyparvar adiblarimizdan biri bu Obidjon Mahmudovdir. Obidjon Mahmudov (Obid chatoq) ochiq fikrli, millatparvar va o`tkir qalam sohibi edi. Obidjon Mahmudov tomonidan 1914 yilda “Sadoi Farg`ona” gazetasi nashr etilgan. Gazetaning jami 122 soni chiqqan.

Gazeta noshiri va muharriri Obidjon Maxmudov ham, gazeta ta`sischisi Ashurali Zohiriy ham jadidlardan bo`lishgan. “Sadoi Farg`ona” gazetasini nashr etilishi haqida ayrim fikrlar mavjud. Masalan, 1924 yilda Abdulla Avloniy o`zining “Bugungi o`zbek vaqtli matbuotining tarixi” maqolasida shunday

¹ Гофуров И. Миллий ҳаёллар ва “Садои Туркистон” // “Ўзбекистон адабиёти ва санъати”. – Т., 1994. – №6. – Б. 15.

yoʻzadi: “Sadoi Fargʻona” gazetasi 1914 yil Qoʻqonda “Sadoi Turkiston” bilan bir kunda Obidjon Mahmudovning masʼulligi ostida chiqqan boshlandi. Bu gazeta har jihatdan “Sadoi Turkiston” dek boʻla olmadi. Qalam ahlini oʻziga jalb qila olmasdan imqirozga yuz tutib, nihoyat bu ham toʻxtadi”¹.

Alisher Navoiy nomidagi Oʻzbekiston Respublikasi Davlat kutubxonasining Nodir iashrlar boʻlimida hozir ham saqlanayotgan gazeta taxlamlari shuni koʻrsatadiki, gazeta 1915 yil 26 mayga qadar nashr etilgan boʻlib, jami 122 ta soni chiqqan. Gazetaning 1914 yil aprelʼ, payshanba kuni chiqqan 1-sonida shunday satrlarni oʻqiymiz: “Haftada uch marta chikadurgʻon ilmiy, fanniy, siyosiy turkcha gazetadur”. Demak, gazeta ilmiy, siyosiy nashr boʻlgan. Qogʻoz bichimi “A-2” formatda, oʻrtacha sifatli yupqa qogʻozda, Qoʻqon shahar, Haydarbek mahallasida, Obidjon Mahmudovning shaxsiy bosmaxonasida, 4 sahifada bosilgan. Obidjon Mahmudov, Ziyoy Said aytganiday, gazetaning ham noshiri, ham muharriri boʻlgan. Gazetaning obuna narxi Qoʻqon shahri va Rossiya imperiyasi shaharlari aholisi uchun 1 yilga 5 soʻm, 6 oyga 3 soʻm, 3 oyga 2 soʻm, 1 oyga 60 tiyin; xorij mamlakatlari fuqarolari uchun esa deyarli 2 barobar qimmat, 1 yilga 12 soʻm, 6 oyga 7 soʻm, 3 oyga 4 soʻm, 1 oyga 1,5 soʻm boʻlgan².

Yuqorida aytilganidek, gazeta sahifalarida xususiy eʼlonlar ham jamoa eʼlonlari ham koʻplab bosilgan. Gazetada berilgan eʼlonda yozilishicha, qoʻqonliklar uchun eʼlon bahosi 1-sahifa uchun har satri 20 tiyin, oxirgi sahifa uchun –15 tiyin. Boshqa shaharliklar uchun esa 1-sahifaning har satri uchun – 60 tiyin, oxirgi sahifa –30 tiyin³.

Eʼlonlar asosan 3–4 - sahifalarda bosilib, ularnin koʻpchiligi iqtisodiy mavzuda boʻlgan (Rossiya zavodlarida tayyorlangan “Model-59” rusumli engil avtomobilʼ, choʻyan quvurlar va boshqa koʻplab sanoat mahsulotlari reklama

¹ Абдуазизова Н.А. Миллий журналистика тарихи (Генезис ва эволюция). Биринчи жилд, – Т.: Шарқ, 2008. – Б. 199.

² Зиё Саид. Ўзбек вақтли матбуоти тарихига материаллар. Танланган асарлар. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1974. – Б. 51.

³ “Садой Фарғона” 1914, 1–сон.

qilingan). Shuningdek, turli kasb egalari aholiga o'z xizmatlarini taklif etib ham e'lonlar berishgan. "Sadoi Farg'ona" ning maqsadi haqida uning noshiri va muharriri Obidjon Mahmudov gazetaning 1-sonida bosilgan "Maqsad va maslak" maqolasida shunday yozadi: "Gazetani nashr etishdan maqsadimiz tijorat emas, balki xalqimizga qo'limizdan kelgan qadar xizmat etmokdir. Xalqimizda matbuot va jaridai milliyaga kundan-kun shavq va rag'bat o'zgardi. Gazeta moddiy jihatdan ta'minlangan"¹.

Gazetaning ana shu 1-sonida Ashurali Zohiriy qalamiga mansub bo'lgan "So'z boshi" maqolasi ham bosilgan bo'lib, unda nihoyatda muhim, juda ajoyib ijtimoiy-siyosiy, adabiy-falsafiy g'oya ilgari suriladi. Bu maqolada aytiladiki, "Gazeta har bir millatning tilidur, gazetasiz millat tilsizdur. Zero, tili va adabiyoti yo'q millat millat emasdur"². Demak, gazeta va adabiyot har bir millatni millat sifatida ko'rsatuvchi, millat sifatida shakllantiruvchi eng asosiy ko'rsatkich, sifat, xususiyatdir. Bunday bir ulug', zo'r ijtimoiy-siyosiy g'oya birinchi bor Ashurali Zohiriy tomonidan "Sadoi Farg'ona" gazetasida, uning 1914 yil chop etilgan 1-sonida ilgari surildi.

Ma'lumki, ma'rifatparvarlar tomonidan kun tartibiga qo'yilgan dolzarb muammolardan yana biri ona tili masalasi bo'lgan. "Sadoi Farg'ona" gazetasi ham bu masalani o'z nazaridan chetda qoldirmagan. Masalan, Ashurali Zohiriy gazetaning 3-sonida bosilgan "Ona tili" nomli maqolasi ruhi jihatidan o'zbek tilini mensimovchi shovinistlar, o'z ona tiliga mensimay qarovchilarni asosli tanqid ostiga olar ekan, u ayni chog'da o'zbek tilining boy, go'zal ekanligini til tarixi faktlari, tatar tiliga qiyoslangan dalillar bilan ochiq ko'rsatib beradi.

"Sadoi Farg'ona" o'z targ'ibotida xalqning milliy tuyg'usini, milliy g'ururini uyg'otishga ayricha ahamiyat bergan, yurtini, tilini, dinini, tarixini, madaniyatini, urf-odatlarini, umuman o'zligini anglamagan va e'zozlamagan millat mustaqil bo'la

¹ "Садои Фарғона" 1914, 1-сон.

² "Садои Фарғона" 1914, 1-сон.

olmasligini qayta-qayta uqtirgan. Milliylikni asrash millat mustaqilligini saqlash demakdir. “Sadon Farg’ona” qalamkashari buni chuqur idrok etganlar.

Keltirilgan dalillar “Sadoi Farg’ona” gazetasining ma`rifatparvarlik, taraqqiyparvarlik g’oyalarining izchil targ’ibotchisi bo`lganidan, uning milliy tafakkurni rivojlantirishga qo`shgan hissasi salmoqli ekanidan to`la dalolat beradi.

Xulosa shuki, ma`rifatparvarlik bugun ham o`z ahamiyatini yo`qotgan emas. Mustaqil rivojlanish yo`lidan borayotgan yurtimizda faravonlik va taraqqiyotni qaror toptirishga qodir bo`lgan ma`rifiy-ma`naviy barkamol insonlarni voyaga etkazish masalasiga birinchi darajali ahamiyat berilayotganligi buning tasdig’idir.

3.2. Turkiston matbuoti muammolari va echimlari

XIX asrning ikkinchi yarmida Turkistonda birinchi marta bosma kitob nashr etila boshladi. Bu g’oyat muhim tarixiy voqea edi. Lekin O`rta Osiyoning markaziy shaharlarida bosmaxolalarning tashkil etilishini chor Rossiyasining o`lkaga ko`rsatgan marhamati sifatida qabul qilish kerak emas. **Birinchi**dan, noshirlik jahon mamlakatlarida keng tarqalib bo`lgan edi. **Ikkinchi**dan, Turkiston o`lkasidagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat rus hukumatidan bu erda mustamlakachilikka qarshi kurash avj olib ketishini bartaraf etish uchun muayyan jihatdan mahalliy ijtimoiy talablarga yon berishni talab qilar, bu borada bosmaxona kabi ijtimoiy dunyoqarashga ijobiy ta`sir ko`rsatadigan, lekin mavjud mustamlakachilik siyosatiga halal bermaydigan siyosiy vositalardan foydalanishga majbur etardi. **Uchinchi**dan, bosmaxonalar Turkiston o`lkasidagi kitobga bo`lgan yuksak talabdan kelib chiqib, iqtisodiy foyda olishni ko`zlagan holda tashkil etilgan. Bu o`rinda Turkistonga sehrli o`lka sifatida qarash rus burjuaziyasining nafi ham yaxshigina rol’ o`ynagan edi. Bosmaxonalarniig tashkil etilishiga, ayniqsa, oxirgi sabab katta turtki berganini bu o`lkadagi noshirlik korxonalarining, asosan rus muhojirlari tomonidan tashkil etilib boshqarilgani ham tasdiqlaydi. Lekin bu siyosiy jarayonlar O`rta Osiyo xalqlarining savodini chiqarish, madaniy merosiga hissa

qo'shish, ilm-ma'rifatni oshirish, qo'shni mamlakatlar xalqlari madaniyati bilan tanishtirish, jahonda yuz berayotgan o'zgarishlardan voqif qilish yo'lida olib borilgan harakatlar sifatida baholanishi xaqiqiy siyosiy maqsadlarni niqoblash uchungina edi, xolos. To'g'ri, bundan o'lka xalqlariga hech qanday foyda bo'lmadi, dsiyish xato bo'ladi. Ammo siyosatga berilgan ta'riflardan birida sadaqa berib quldek ishlatish aynan siyosatdagi ifloslik, ya'ni manfaat yo'lida vijdon va axloqni ifloslikka bo'sundirish, deya ta'riflanadi. Ruslarning Turkistonga ko'rsatgan yonbosishlari xuddi mana shu ta'rif mohiyatiga muvofiq kelar edi. Turkistonda Rus zodagonlarining manfaatlariga, qolaversa, o'sha mafkuraviy tuzum siyosatiga xizmat qiluvchi ma'naviy qurol sifatida bosmaxonalar tashkil etildi. Bu ayni vaqtda o'zbek madaniyatida kitoblarni bir vaqtning o'zida ko'plab nusxada nashr etilishining boshlanishini bildirar edi.

XIX asrning ikkinchi yarmida Turkistonda xususiy bosmaxonalar paydo bo'la boshladi. 1877 yilda S.I.Laxtin tashkil etgan bosmaxona shularning dastlabkisidir¹. Mazkur bosmaxona litografiya jihozlariga ega bo'lib, mahalliy tilda kitoblar nashr qilgan. SHuni alohida qayd qilish kerakki, Turkistonda, garchi bosmaxona kech tashkil topgan bo'lsada, lekin litografiya yo'li bilan kitob nashr qilish ancha rivojlangan edi. Sabab shuki, litografiya texnikasi uncha murakkab bo'lmay, bosmaxona uskunalariga nisbatan birmuncha arzon edi. O'rta Osiyoda birinchi litografiya Xiva shahrida 1874 yili vujudga keldi. Uning tashkilotchisi Otajon Abdalov edi. U eronlik ustozi Ibrohim Sulton rahbarligida Xivada toshbosma tashkil etishga muvaffaq bo'ldi. SHu paytdan boshlab u "Og'ajon bosmachi" (matbaachi) degan nom oldi. Biroq bu ish uzoqqa cho'zilmadi. Xonlikdan moddiy yordam bo'lmagach, uning faoliyati to'xtab qoldi. Keyingi davrlarda tashkil etilgan litografiyalar mahalliy burjuaziya vakillaridan iborat ayrim shaxslar qo'lida edi. Temir sotuvchi esonboy Husayinboev ham dastlabki o'zbek nashriyotchilaridan biridir. Uning litografiyasi Toshkentda 1883 yilla ishga

¹ Зиё Саид. Ўзбек вақтли матбуоти тарихига материаллар. Танланган асарлар. – Т.: Фафур Фулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1974. – Б. 65.

tushirildi. Mazkur litografiya uchun asbob-uskunalar Rossiyadan 50 dan ortiq tuyada keltirilgan. 1888 yilning oxirida Toshkentda S.A.Portsev tomonidan yana bir bosmaxona ishga tushirildi. “Umuman, 1868 yildan 1898 yilga qadar Turkistonda matbaa korxonalarining soni 15 ga etdi. Ularda 6 tasi bos-maxona bo`lib, qolganlari ligografiya yoki tipolitografiyaga ega bo`lgan bosmaxonalardir”¹. Keyinchalik litografiyalar Toshkent, Buxoro, Samarqand, Andijoi va boshqa shaharlarda paydo bo`la boshladi. Litografiya uchun asbob-uskunalar Rossiya, Xindiston, Eron, Misr va boshqa mamlakatlardan keltiriladi.

Ilk davrlarda matbaa korxonalari texnika jihatidan qoloq, mahsulot ishlab chiqarish jihatidan sifatsiz edi. Matbaa sanoati korxonalarida ishlayotgan xodimlarning tarkibi ham xarakterlidir: mahalliy millat vakillari 72 kishi bo`lib, bo`lardan 16 kishigina malakali xodim edi. Bosmaxona va litografiyada ishlayotgan ishchilar orasida birgina ayol bor edi, xolos. Turkiston diyori Ruslar tomonidan zabt etilgach, dastlabki davrdayoq kitob bosish uchun moddiy-texnika bazasi yaratildi. Rus burjuaziyasining siyosiy maqsadlarda ko`rsatgan tashabbusi tez orada mahalliy ziyolilarning uni o`z qullariga olishlariga imkoniyat yaratdi. Mahalliy nashriyot vujudga kelishi Turkistonning o`sha davrdagi madaniy hayotida g`oyat katta voqea bo`ldi².

Rus hukumati boshqa sohalar kabi noshirlik ishlaridan ham o`lkani ma`naviy jihatdan tobe qilish, umum ruslashtirish siyosatini kuchaytirish kabi strategik vazifalarni hal etishda foydalanishga intildi. Ammo rus hukumatining mafkuraviy va ma`muriy tadbirlariga qaramay, keng xalq ommasi, milliy ziyolilar asriy an`analarni asrab qolishga intildilar va o`tmish ma`naviy merosini boyitishga kirishdilar. Noshirchilik ishlarida milliy taraqqiyot uchun o`ziga xos shafqatsiz kurash avj oldi. Bu esa, o`z navbatida, Turkistondagi milliy ozodlik kurashining ajralmas qismi bo`lib qoldi. Matbaachilik sohasida raqobatga chiday

¹ Бобожонова О. Ўзбекистоннинг кўхна китоблари // “Мозийдан садо”. – Т., 2006. – №4. – Б. 9.

² Абдуазизова Н.А. Ўзбекистонда ижтимоий–сиёсий, адабий–бадний журналлар ва уларнинг тарихий–тадрижий таснифи масалалари (XIX аср охири – XX аср бошлари): Тарих фан.докт. ... дисс. – Т., 1997. – Б. 86.

olmagan N.A. Kugelning shtampgraver (o`ymakorlik ustaxonasi) bosmaxonasini, 1907 yilda Samarqandda faoliyat yuritgan aka-uka Ignatovlar litografiyasi hamda Sliyanov va Nazarov matbaalari shirkatini G. Demurov litografiyasi o`ziga qo`shib oladi. Natijada 1908 yilda bu qadimiy shaxarda katta litografiya vujudga keladi. Bu erda dastlab choy yorliq (etiketka)lari bosmadan chiqarilgan. 1904 yil 1 maydan V.M.Morozov tashkilotchiligida rus tilida “Samarkand” gazetasi nashr etila boshladi. Unga avval N.V.Bototin, keyinchalik P.V.Pozdnyakov, G.D.Demurovlar noshirlik qilishgan. Ommaviy-ijtimoiy, adabiy yo`nalishda nashr etilgan mazkur gazetada V.Vyatkin, V.Bartol'd, N.Likoshin, Yu.Yakubovskiy kabi o`lkashunoslarning maqolalari, “Maxalliy xabarlar” va “O`lka bo`ylab” ruknlari ostida Turkistonning uzoq shaharlaridagi hayot xam aks ettirilgan maqolalar berib borilgan¹. 1906 yil 16 yanvarda ushbu gazeta ham, bosmaxona ham podsho senzurasini tomonidan yopiladi. Ko`p o`tmay G.D. Demurov katga jarima to`lab bosmaxonani qayta ishga tushirishga muvaffaq bo`ladi. Gazeta esa 1906 yil 5 fevraldan boshlab kundalik nashr – “Zarafshan” gazstaning avval nomi bilan chop etila boshlaydi. Xullas. “Samarqand” gazetasi va uni nashrdan chiqaruvchi bosmaxona ham podsho senzurasini tomonidan bir necha bor sudlanadi, yopiladi. Biroq bokulik savdogar G.Demurov har safar katta jarima to`lab, faoliyatini yana davom etgiraveradi.

Manbalarda qayd etilishicha, bu matbaa o`z kuchi imkoniyatlarini kitob chop etishda ham sinab ko`rgan. Ammo ko`p mexnat talab qilinib, daromadning kam bo`lishi bokulik savdogarni qanoatlantirmagan. Buning ustiga gazetaga nisbatan nazorat idoralari hamda sudlar tomonidan qo`yilgan talab, jarimalardan G.I.Demurov juda charchagan. U ishni K.X.Sliyanovga topshirib, o`zi Tiflis (Tbilisi) da yashay boshlagan. O`sha erdan turib bosmaxonaning kagta muammolarini hal qilish bilan cheklangan.

Tipolitografilning O`rta Osiyoda inqilobdan oldin tashkil topgan bosmaxonalardan (90 ta) farqi shu ediki, uni fon Kaufman tashkil etgan

¹ Бобхонов А. Уч асрга юзланиб // “Миллий тикланиш”.2000. 24 июль.

“Turkestanskije vedomosti” (1870) nashr etiladigan harbiy shtab bosmaxonasi bilan qiyoslaganda G.I. Demurov tipolitografiyasining ustunligini ko`ramiz. Jumlan, bu shaxsiy tipolitografiya matbaachilari kasb darajasining yuqoriligi, matbaa uskunalarining xilma-xilligi va ular asosan. xorijdan keltirilganligi, bosma mahsulotlarni ikki xil rangda yuqori sifatda bosilganligida ko`rinadi.

1899 yili Turkiston o`lkasining madaniy markazlaridan biri Samarqandda bokulik savdogar Georgiy Demurovning shaxsiy bosmaxonasi tashkil topadi. Oradan to`rt yil o`tgandan so`ng G. Demurov N.Kugelning shtampgraver (mis o`ymakorlik ustaxona bosmaxonasi) ni o`z bosmaxonasiga birlashtirib oladi. Bu qo`shma korxona 1908 yilga qadar “Demurov litografiyasi” deya nomlanib kelingan. Shaharda eng obro`li bo`lgan G.I. Demurov bosmaxonasining litografiya bosma bo`limida ikki rangda ishlovchi uchta bosma uskuna kunu tun tinmay bosma mahsulot chop etgan. Bu erda o`n beshga yaqin mutaxassislar ishlaganlar¹.

Tarixiy hujjatlarlan ma`lum bo`lishicha, bokulik savdogar tipolitografiyasiga Germaniya choy birjasining Turkistondagi vakili Vagou va K°, ozarbayjonlik Tagiev, Rizaev, Aliaskarovlar, moskvalik Kuznetsov, aka-uka Popovlar choy yorliqlariga buyurtmalar berganliklari, Samarqandda bunday firma, birjalar o`ndan ortiq ziyod bo`lganligi, choy yorliklari transmissiya yordamida ishlovchi yigirma ot kuchiga ega olti toshbosma uskuna (mashina) yordamida uch smenali ish jadvaliga ko`ra ishlaganligi, matbaa XX asrning boshidayoq elektrlashtirilganligi ma`lum. Shuningdek, matbaaning to`rtta bosma bo`limida uchta bosma mashina bo`lib, kattasida gazeta, ikki kichigida – “Amerikanka”da shaxsning kimligini bildiruvchi varaqa (vizit kartochka) chop etilgan<sup>2</sup>. Bu bo`limda o`n ikki mutaxassis mehnat qilgan. Bosmaxonaga zarur bo`lgan barcha matbaa mashinalar bo`yoq, qog`oz va boshqa matbaa materiallarni G. Demurov choy birjalari orqali xorijdan keltirgan.

¹ Бобхонов А. Уч асрга юзланиб // “Миллий тикланиш”. 2000. 24 июль.

² Абдуазизова Н.А. Миллий журналистика тарихи (Генезис ва эволюция). Биринчи жилд, – Т.: Шарк, 2008. – Б. 73.

Turkistonda bosmaxonalarning tashkil topilishi, ularda gazeta, jurnal va kitoblarning chop etilishi tasviriy san`at rivojiga ham ta`sir qildi. Mahalliy tillarda kitob, gazeta, ilmiy to`plam va taqvimlar nashr etila boshlandi. Bu nashrlarda tasviriy san`atning ilk namunalari paydo bo`la boshladi¹.

Shunday qilib, rus hukumati boshqa soxalardagi kabi nashr ishlaridan ham o`lkani ma`naviy jihatdan tobe qilish, umumruslashtirish siyosatini kuchaytirish kabi strategik vazifalarni hal etishda foydalanishga intildi. Ammo bosqinchi hukumatning mafkuraviy va ma`muriy tadbirlariga qaramay, keng xalq ommasi, milliy ziyolilar asriy an`analarni asrab qolishga intildilar. O`tmishimizning ma`naviy merosini boyitishga tirishdilar. Nashr ishlarida o`zlariga xos milliy taraqqiyot uchun shafqatsiz kurash ketdi. Bu esa o`z navbatida Turkistondagi milliy ozodlik kurashining ajralmas qismi bo`lib qoldi.

Dolzarb siyosiy vazifalarni hal etish va muhim zamonaviy masalalarni muhokama qilish uchun kundalik adabiyot – gazeta va jurnallar chiqarish zarurati tug`illi. Turkistonda vaqtli matbuot ana shu zaminda vujudga keldi.

Turkistonda o`zbek tililagi dastlabki mustaqil nashrlar asrimizning boshidagina, aniqrog`i 1905-1907 yillardagi birinchi rus inqilobi davrida, "Turkiston viloyatining gazetisi" chiqarilganidan salkam qirq yil o`tgandan keyingana vujudga keldi. Bu shubhasiz, o`lka ijtimoiy hayotida tarixiy ahamiyatga molik muhim voqea edi. Inqilob zarbasidan sarosimaga tushgan rus hukumati matbuot sohasida xam yon berishga majbur bo`lgandi. Ilg`or musulmon ziyolilari bundan foydalanib, davriy nashrlar chiqarish to`grisida ruxsatnoma olishga erishdilar.

1917 yilga qadar O`zbekistonda yirik matbaa sanoati hali shakllanmagan edi. Bu erda 25 ga yaqin o`rta darajadagi bosmaxona va litografiya mavjud edi, xolos. Ular texnik jihatdan qoloq bo`lib, hamma ish qo`l kuchi bilan bajarilar edi. Bosmaxona va litografiyalarda ishlovchi 574 ishchidan 72 tasi mahalliy millat

¹ Зиё Саид. Ўзбек вақтли матбуоти тарихига материаллар. Танланган асарлар. – Т.: Фафур Фулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1974. – Б. 71.

vakillari bo`lib, ular etarli malakaga ega emas edilar. Shu sababdan milliy tillardagi adabiyotlar asosan litografiya usuli bilan bosilar edi¹.

Sobiq sovet tuzumi Oktyabr' to`ntarishining dastlabki oylaridayoq nashriyot ishlariga jiddiy e`tibor qaratdi. 1917 yil dekabr' oyida Davlat nashriyoti haqida dekret qabul qilindi. Bu dekretda RSFSR Maorif Xalq Komisarligiga o`zining adabiyot–nashriyot bo`limi orqali darhol nashriyot ishlarini kengaytirish tavsiya etilgan edi. Milliy ishlar Xalq Komisarligining “Sharqiy” va “G`arbiy” nashriyotlari milliy tillarda nashriyot ishlarini kengaytirib yubordi.

Shunday qilib, avval Toshkentda, keyinroq Samarqand, Ko`qon va Buxoroda birin-ketin ijtimoiy–siyosiy va adabiy mazmundagi bir qator o`zbekcha davriy nashrlar tashkil topdi. Ularning tashkilotchilari, muharrirlari va etakchi mualliflari XX asr boshida Turkistonda ma`rifatchilik zahirida yuzaga kelgan jadidchilik xarakatining mafkurachilari bo`lishgan. Jadidlar istilochilar va mahalliy mustabidlar oyog`i ostida toptalgan Turkiston o`lkasini savodli, ma`rifatli, taraqqiyotga erishish, obod yurtga aylantirish orzusi bilan yashadilar va matbuotni shu orzuga erishish yo`lidagi qudratli vosita deb bildilar. Turkiston jadidlarining etakchi namoyandalari Maxmudxo`ja Bexbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, taraqqiyparvar yo`nalishdagi o`zbek matbuotini shakllaitirishga katta hissa ko`shdilar.

Jadid gazetalarning faoliyati mashaqqatli kechdi. Rus ma`muriyati ularni qattiq iskanjaga oldi. Toshkentda chiqqan "Taraqqiy" (1906 y.), "Xurshid" (1906 y.), "Shuhrat" (1907 y.), "Osiyo" (1908 y.) gazetalari Turkistondagi rus ma`muriyati tomonidan yopib qo`yilgan bo`lsa, boshqa milliy nashrlar aksariy hollarda moliyaviy qiyinchiliklar tufayli chiqishdan to`xtagan².

1917 yil fevralidagi ikkinchi rus inqilobidan so`ng Turkistonda o`lka hayotini demokratik asosda yangilash talabi bilaya chiqqan qator yangi milliy

¹ Абдуазизова Н.А. Ўзбекистонда ижтимоий–сиёсий, адабий–бадий журналлар ва уларнинг тарихий–тадрижий таснифи масалалари (XIX аср охири – XX аср бошлари): Тарих фан.докт. ... дисс. – Т., 1997. – Б. 92.

² Пидяев Т. Матбуот миллат чироғи. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 1999. – Б. 11.

davriy nashrlar paydo bo'ldi. Milliy harakatni avj oldirishda, o'zbek xalqining ixtimoiy-siyosiy faolligini maishiy istiqlool uchun kurashga yo'naltirishda shu yili tashkil bo'lgan "Najot", "Turk eli", "Turon", "Ulug' Turkiston" (Toshkent), "Hurriyat" (Samarqand), "El bayrog'i" (Qo'qon) gazetalar va "Yurt" (Qo'qon), "Chayon" jurnallarining xizmati sezilarli bo'ldi. Mazkur nashrlar asosan Turkistondagi jadidchilik xarakatining faol namoyandalari tashabbusi bilan yuzaga keldi va ularning ijodiy hamkorligida faoliyat xo'rsatdi. Chunonchi, "Najot" gazetasiga faoliyatiga Munavvarqori Abdurashidxonov rahbarlik qilgan, "Turon" gazetasining tashkilotchisi Abdulla Avloniy bo'lgan. Samarqandda chiqqan "Xurshid" gazetasiga, jumladan, Abdurauf Fitrat va Hoji Muinlar muharrirlik qilganlar. Asrimiz boshidagi o'zbek publitsistikasining etakchi namoyandasi – Mahmudxo'ja Bexbudiyning "Hurriyat" gazetasida dolzarb ijtimoiy-siyosiy mavzulardagi talaygina maqolalari chop etilgan. Jadidlar asos solgan o'zbek milliy matbuoti o'z yo'lidagi g'ovlarga qaramay, milliy ong, milliy til, milliy adabiyot va jurnalistikani shakllantirishga barakali ta'sir ko'rsata oldi. Unga aksilinqilobiy matbuot tamg'asi bosildi.

Xulosa o'rnida qayd etish joizki, sho'ro tuzumi davrda jadidchilik harakatining o'zbek xalkining ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotidagi ahamiyati tarixiy haqiqatga zid ravishda buzib talqin qilindi. Jadidchilik harakati milliy ozodlik harakati bilan chambarchas bsg'liq ijtimoiy-siyosiy hodisa ekanlig'i inkor etildi.

Yurtimizda qaror topgan mustaqillik tufayli biz endilikda tarixiy merosimizni haqqoniy o'rganish va baholash imkoniga erishdik. Mustaqil O'zbekiston Oliy Kengashi 1993 yilda "Taraqqiy" gazetasining 1-soni chiqqan 27 iyun' sanasini o'zbek jurnalistlarining kasb bayrami sifatida nishonlash to'g'risida maxsus qaror qabul qildi. Bu milliy matbuotimizning xalqimiz ravnakidagi beqiyos xizmatiga berilgan munosib baxodir.

Tariximizga jadid matbuoti nomi bilan kirgan XX asr boshidagi o`zbek milliy matbuotiga keng qamrovli, haqqoniy ilmiy tarixini yaratish ilmiy jamoatchilik oldida ko`ndalang turgan vazifalardan biridir.

Xulosa

Tadqiqot natijasidan kelib chiqib, shuni qayd etish lozimki, Turkistonda milliy matbuotning paydo bo'lishi va uning taraqqiyoti o'lka xalqlarining ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotida muhim tarixiy voqea bo'ldi. Ayniqsa, jadidlar asos solgan O'zbek milliy matbuoti o'z yo'lidagi g'ovlarga qaramay, milliy ong, milliy til, milliy adabiyot va matbuotni shakllantirishga barakali ta'sir ko'rsata oldi. Shunday bo'lsada unga aksilinqilobiy matbuot tamg'asi bosildi. Shuni alohida qayd etish joizki, sho'ro tuzumi davrida turkiston matbuotining O'zbek xalqining ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotidagi ahamiyati tarixiy haqiqatga zid ravishda buzib talqin qilindi. Yurtimizda qaror topgan mustaqillik tufayli biz endilikda tarixiy merosimizni haqqoniy o'rganish va baholash imkoniga erishdik.

Tadqiqot natijalari va tahliliga ko'ra, biz quyidagi xulosalarga keldik:

- Turkiston matbuoti tarixining alohida xususiyati shundaki, bu hududda matbuot Evropa va Osiyodagi boshqa mamlakatlardagiga nisbatan ancha kech tashkil topdi va tarqqiy qildi;
- Turkistondagi dastlabki davriy nashrlar rus hukumatining Turkiston ma'muriyati mablag'i hisobidan nashr qilinib, ularning o'lkada mustamlakachilik siyosatini o'tkazish vositasi bo'lib xizmat qildi;
- XIX asrning so'ngi o'n yilligida Turkistonda matbuot sohasida ro'y bergan yana bir yangilik davriy matbuotning jurnal turiga asos solinishi bo'ldi;
- Turkistonda O'zbek tilidagi dastlabki mustaqil nashrlar asrimizning boshidagina, aniqrog'i birinchi rus inqilobi davrida vujudga keldi. Bu shubhasiz, o'lka ijtimoiy hayotida tarixiy ahamiyatga molik muhim voqea bo'ldi. Inqilob zarbasidan sarosimaga tushgan rus hukumati matbuot sohasida ham yon berishga majbur bo'lgan;
- bu davrda O'zbek milliy matbuoti tarixida jadid gazeta va jurnallari alohida o'rinni egallaydi. Ammo, bu gazetalarning faoliyati mashaqqatli kechdi. Bunday milliy nashrlar aksariy hollarda moliyaviy qiyinchiliklar tufayli o'z faoliyatini to'xtatgan;

- 1917 yil fevralidagi ikkinchi rus inqilobidan so`ng Turkistonda o`lka hayotini demokratik asosda yangilash talabi bilan chiqqan qator yangi milliy davriy nashrlar paydo bo`ladi;
- mazkur davrdagi davriy nashrlarning milliy harakatni avj oldirishda, o`zbek xalqining ijtimoiy-siyosiy faolligini milliy istiqlol uchun kurashga yo`naltirishdagi xizmatlari beqiyos bo`lgan;
- bundan tashqari bu gazeta va jurnallar mustamlakachilarning xalqlar, ellarni erk, istiqlol, milliy ozodlik kurashidan chalg`itish, ularga mutelik ruhini singdirish uchun ataylab millatlar va elatlar orasida etnik jihatdan nizo solish ularni gij-gijlashdek o`ta razil va makkarona siyosat yurgizganini ochib tashlashga jur`at eta olgan;

Xulosa o`rnida yana shuni aytib o`tish joizki, hozirgacha O`zbek matbuoti tarixiga oid bir qancha kitoblar, manografiyalar va tadqiqotlar yaratilgan. Biroq, ularning aksariyati sho`ro mafkurasi asosida dunyoga kelgan va bugungi kunda g`oyaviy jihatdan milliy-ma`naviy qiymatini yo`qotgan. Shu nuqtayi nazardan Turkiston milliy matbuoti tarixini yoritishda tadqiqotchilar tomonidan tarixiy-qiyosiy usullardan foydalanilgan holda, haqqoniylik, holislik prinsplariga amal qilinsa maqsadga muofiq bo`lar edi. Bizningcha, mazkur masala kelgusida o`z tadqiqotchilarini kutib qoladi.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar ro`yxati

I. Rasmiy adabiyotlar

- 1.1. Каримов И.А. Биздан озод ва обод Ватан қолсин // Халқ сўзи. 1993. 7 сентябрь.
- 1.2. Каримов И.А. Биздан озод ва обод Ватан қолсин. –Т.: Ўзбекистон, 1996.-58 б.
- 1.3. Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. –Т.: Шарқ, 1999.-31 б.
- 1.4. Каримов И.А. Юксак маънавият-енгилмас куч. –Т.: Ўзбекистон, 2008.-173 б.
- 1.5. Каримов И.А. Жаҳон молиявий-иқтисодий инқирози, Ўзбекистон шароитида уни бартараф этишнинг йўллари ва чоралари. –Т.: Иқтисодиёт, 2009.-120 б.

II. Arxiv manbalari

2.1. O'zbekiston Respublikasi Markaziy Davlat Arxivi:

– И -1- фонд, Туркистон Генерал Губернаторлиги девонхонаси

III. Davriy matbuot materiallari

- 3.1. Абдуазизова Н.А., Қаямов А. Туркистон матбуоти тарихи тадқиқотчилар наздида // Жамият ва бошқарув. – Т., 2004. – №4. – Б. 15–16.
- 3.2. Абдуазизова Н.А. Маънавият кўзгуси // Жамият ва бошқарув.–Т., 2007. – №3. – Б. 41–13.

- 3.3. Абдулла Авлониё. Бурунги ўзбек вақтли матбуотининг тарихи // Туркистон, 1989. 18 июль.
- 3.4. Бобхонов А. Уч асрга юзланиб // “Миллий тикланиш”. 2000. 24 июль.
- 3.5. Бобожонова О. Ўзбекистоннинг кўхна китоблари // “Мозийдан садо”. – Т., 2006. – №4. – Б. 8.
- 3.6. Курахмедов А. “Туркистон тўплами” да Самарқанд // “Ўзбекистон адабиёти ва санъати”. – Т., 1996. – №3. – Б. 14.
- 3.7. Каттабоев А. Ўзбекистон китоб нашри тарихига доир // Ўзбекистонда ижтимоий фанлар. – Т., 1998. – №2. – Б. 43.
- 3.8. Мингноров А.Т. 1917–1918 йилларда Туркистонда нашр қилинган газета ва журналлар // Ижтимоий фикр, инсон ҳуқуқлари. – Т., 2001. – №2. – Б. 127–130.
- 3.9. Муҳаммадхонов Х. “Убайдуллаҳўжа Асадуллаҳўжа ким эди?” // “Ўзбекистон адабиёти ва санъати”. – Т., 1991. – №5. – Б. 12.
- 3.10. Пидаев Т., Ҳалимова С. Убайдулла Асадуллаҳўжаев ва “Садон Туркистон” газетаси // Ўзбекистон матбуоти. – Т., 1997. – №1. – Б. 14.
- 3.11. Пидаев Т., Дўстқораев Б. “Тараққий” газетаси // Халқ сўзи. 1993. 11 июнь.
- 3.12. Расулов А. Тақдир тақозоси билан Туркистонга келиб қолган татарлар // Жамият ва бошқарув. – Т., 2003. – №4. – Б. 73–76.
- 3.13. Расулов А. Туркистон маданий ҳаётида татарлар // Ижтимоий фикр, инсон ҳуқуқлари. – Т., 2004. – №1. – Б. 128–131.
- 3.14. Расулов А. Туркистондаги очарчилик // Жамият ва бошқарув. – Т., 2004. – №1. – Б.
- 3.15. Раҳмонов К. Бухоро Республикасининг матбуот органи // Жамият ва бошқарув. – Т., 2004. – №2. – Б. 44–45.
- 3.16. Турсунова Р. 1917 йил февралдан кейин Туркистон аҳолиси сиёсий фаоллигининг ўсиши ва шаҳарлардаги миллий демократик ташкилотларнинг фаолияти // Ўзбекистон тарихи. – Т., 2000. – №3. – Б. 51–57.

- 3.17. Гофуров И. Миллий ҳаёллар ва “Садои Туркистон” // “Ўзбекистон адабиёти ва санъати”. – Т., 1994. – №6. – Б. 15.
- 3.18. Ҳайитов Ш. Очарчилик ва унинг даврий матбуотдаги талқини // Жамият ва бошқарув. – Т., 2004. – №4. – Б. 70–72.
- 3.19. Шодмонова С. 1917 йилда Туркистонда ижтимоий-иқтисодий аҳволнинг даврий матбуотдаги мониторинги // Ижтимоий фикр, инсон ҳуқуқлари. – Т., 2006. – №1. – Б. 173–177.

IV. Adabiyotlar

- 4.1. Абдуазизова Н.А. Туркистон матбуоти тарихи (1870-1917йй.). – Т.: Академия, 2000. – 86 б.
- 4.2. Абдуазизова Н.А. Миллий журналистика тарихи (Генезис ва эволюция). Биринчи жилд, – Т.:Шарк, 2008. – 381 б.
- 4.3.Аъзамхўжаев С. Туркистон мухторияти миллий-демократик давлатчилик қурилиши тажрибаси. – Т.:Маънавият, 2000. – 165 б.
- 4.3. Есенбоев З. Матбуотга бахшида умр. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2001. – 158 б.
- 3.4. Зиё Саид. Ўзбек вақтли матбуоти тарихига материаллар. Танланган асарлар. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1974. – 186 б.
- 3.5. Зиёева Д. Туркистон миллий озодлик ҳаракати. – Т.: Адабиёт ва санъат, 2000. – 176 б.
- 3.6 Муродов А. Ўрта Осиё хаттотлик санъати тарихидан. – Т.: Ўзбекистон, 1972. – 52 б.
- 3.7. Расулов А. Туркистон ва Волгабўйи, Уралолди халқлари ўртасидаги муносабатлар. – Т.: Университет, 2005. – 200 б.
- 3.8. Симонов Н.Ф Туркистонда большевистик матбуот (1902–1907йй.). – Т.: ЎзФан нашриёти, 1941. – 56 б.

- 3.9. Эрназаров Т., Акбаров А. Туркистонда вақтли матбуот. – Т.: Ўздавнашр, 1959. – 145 б.
- 3.10. Қосимов Б. Миллий уйғониш: жасорат, маърифат, фидойилик. – Т.: Маънавият, 2002. – 396 б.
- 3.13. Ўзбекистоннинг янги тарихи. Иккинчи китоб. Ўзбекистон Совет мустамлакачилиги даврида / Тузувчилар: М.Жўраев ва бошқ. – Т.: Шарқ, 2000. – 688 б.
- 3.14. Ўзбекистоннинг янги тарихи. Учинчи китоб. Мустақил Ўзбекистон тарихи / Тузувчилар: Н.Жўраев, Т.Файзуллаев. – Т.: Шарқ, 2000. – 560 б.

V. Dissertatsiya va avtoreferatlar

- 5.1. Абдуазизова Н.А. Ўзбекистонда ижтимоий-сиёсий, адабий-бадний журналлар ва уларнинг тарихий-тадрижий таснифи масалалари (XIX аср охири – XX аср бошлари): Тарих фан. докт. ... дисс. – Т., 1997. – 252 б.
- 5.2. Жабборов М.Р. Фарғона вилояти тарихининг “Туркестанский сборник” да ёритилиши (XIX аср охири-XX аср бошларида) : Тарих фан. ном. ... дисс. – Т., 2000. – 159 б.
- 5.3. Мингноров А.Т. Туркистондагимиллий озодлик ҳаракати масалалари давр миллий матбуотида (1917 йил февраль – 1918 йил ўрталари) : Тарих фан. ном. ... дисс. – Т., 2000. – 148 б.
- 5.4. Нишонова Г.У. Ўзбек публицистикасининг шаклланиши ҳамда ривожланишида “Ойна” журналининг ўрни ва аҳамияти : Филология фан. ном. ... дисс. – Т., 2008. – 150 б.
- 5.5. Рахмонов К.Ж. “Бухоро ахбороти” ва “Озод Бухоро” газеталари – Бухоро Халқ Совет Республикаси тарихини ўрганиш манбаси: Тарих фан. ном. ... дисс. – Т., 2008. – 195 б.
- 5.6. Узоқов Х. Ўзбекистонда мустақиллик учун кураш тарихи 1900-1940 йиллар (журналистлар фаолияти мисолида): Тарих фан. ном. ... дисс. – Т., 1996. – 264 б.

- 5.7. Фатма Ачиқ “Ёш туркистон” журнали тарихий–адабий манба сифатида : Филология фан.ном. ...дисс. – Т., 2002. – 165 б.
- 5.8. Ҳалимова С.А. “Садои Туркистон” газетаси: йўналиши, тил, услуб ва жанр хусусиятлари : Филология фан.ном. ...дисс. – Т., 2008. – 158 б.
- 5.9. Ўринова Б.З. Ўзбекистон республикасида ижтимоий–иқтисодий ва маданий жараёнларни ёритишда вақтли матбуотнинг рўли (1991-2000 йиллар): Тарих фан.ном. ...дисс. – Т., 2002. – 194 б.